

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Murod Sharifxo'jaev

IFTIXOR

TOSHKENT
"O'ZBEKISTON"
1993

O'ZBEKISTON — KELAJAGI BUYUK DAVLAT. BU — MUSTAQIL, DEMOKRATIK, HUQUQIY DAVLATDIR. BU — INSONPARVARLIK QOIDALARIGA ASOSLANGAN, MILLATI, DINI, IJTIMOY AHVOLI, SIYOSIY E'TIQODLARIDAN QAT'I NAZAR FUQAROLARNING HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLAB BERADIGAN DAVLATDIR.

I. A. KARIMOV

Mashhur iktisodchi olim Murod Sharifxo'jaevning "Iftixor" deb nomlangan risolasi O'zbekiston mustaqilligining ikki yilligi munosabati bilan yozilgan bo'lib, unda kelajagi buyuk davlat bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg'ulari ifoda etilgan: eri oltin, havosi beg'ubor, suvi shirin, xalqi ulug'vor serquyosh O'zbekiston har birimizning iftixorimiz ekanligi ko'tarinki ruhda bayon etilgan. Ikki yil ichida mustaqil Respublikamiz erishgan yutuqlarda, uni dunyodagi 160 dan ziyod davlatlar tan olib, xalqaro obro'si ortib borayotganida Prezidentimizning xizmatlari beqiyos ekanligi konkret misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

QUYOSHDAN NUR EMGAN DIYOR

Nazarimda jahon tirikchiligidan rizqi bo'lgan quyosh sharqdan tong ottirib, to peshingacha o'zining butun tafti, mehri, qudrati, orzu va havasini boshida qor, dilida bahor bo'lgan muqaddas, tolei baland jonajon O'zbekistonga to'kib soladi, undan keyin esa o'z yo'lida davom etadi. Shu boisdan O'zbekiston quyosh farzandidir. Shuning uchun uning eri oltin, havosi beg'ubor, suvi shirin, xalqi ulug'vordir.

Quyosh farzandi O'zbekistonni Tangri Taolo havas bilan yaratgan. Chunki bu olamda insonga nima kerak bo'lsa, hammasi shunda muhayyo. Shukurlarkim, 72 yil davomida ro'shnolik ko'rmagan, tabiiy oltini, "oq oltini", "qora oltini"—neft boyligi, qorako'l va boshqa bitmas-tuganmas boyliklari bilan butun dunyoni lol qoldirayotgan va hamma tan berayotgan respublikamiz bugungi kunda mustaqil davlat sifatida jahon iqtisodiga va siyosiy hayotiga komil ishonch bilan kirib bormoqda.

Ha, mustaqillik, istiqloq Vatanim ruhiga afsonaviy kuch ato etdi. Ochilishiga mushtiq bo'lib yotgan minglab ziyo va fikr buloqlarining ko'zi ochilib ketdi. Iymon, e'tiqod, Vatan, erk tuyg'usi, tilsiz, ruhsiz xalqimning butun borlig'ini qamrab oldi va o'zligini bilish, birikish, el bo'lish, jahon shohsupasida o'zining Menligini halol mehnati va aqli bilan tanitish sari etakladi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida ijodiy izlanish qizib ketdi.

Respublika istiqloli va taraqqiyoti dono yurtboshini dunyoga keltirdi. Bu elning baxtidir. U kishining uzoqni ko'zlash va etti o'lchab bir kesish falsafasiga asoslangan rahnamoliklarida bugun biz ikkita asosiy vazifani hal etmoqdamiz. Birinchisi — davlatni barpo etish, mustaqil respublikani vujudga keltirish, uning poydevorini qurish; Ikkinchisi — bozor iqtisodiyotiga o'tish. O'tganda ham xalqimizning turmush tarzini, ruhiyatini, dini-iymonini hisobga olib, hech qanday ijtimoiy larzalarsiz, ochlik va qashshoqliksiz, barqarorlikni, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni qaror toptirib o'tish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, mustaqillikni mustahkamlash yo'lida ko'rilayotgan amaliy tadbirlarni hamma bir jon, bir tan bo'lib qo'llab-quvvatlamoqda. Ichki va tashqi siyosatni ishchanlik va zukkolik bilan boshqarib borishda Prezidentimizga xalq boqiy umr, tolmas yurak, omad yor bo'lishini Alloh Taolodan tilamoqda. Siz tufayli mustaqil bo'ldik va jahonga tanildik, demoqda xalq. Tariximizda birinchi marta 1992 yilning 2 martida xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida BMT ga qabul qilindik. Endi biz siyosatdagi qo'g'irchoq emas, balki siyosatning ijodkori, uning mustaqil va faol ishtirokchisidirmiz.

O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida 160 dan ortiq mamlakatlar, shu jumladan buyuk davlatlar ham tan oldi. 60 dan ziyod davlat biz bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi, o'z elchixonalarini ochdi. O'zbekiston Xalqaro Evropa, Osiyo va regional uchrashuvlarda o'z fikri-zikri, yo'l-yo'rig'i va siyosati bilan qatnashib umumdunyo siyosiy vaziyatini shakllantirishda, umuminsoniy muammolarni hamjihatlik bilan echishda faol qatnashmoqda. Agar oldin O'zbekiston xalqaro munosabatlarning passiv ob'ekti va hatto qurboni bo'lgan bo'lsa, endilikda u mazkur munosabatlarning mustaqil va faod ijodkoriga aylandi. Endilikda O'zbekiston — mustaqil, u bir qator etakchi xalharo siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy birlashmalarning, uyushmalarning a'zosi.

Mana, bizga fuqarosi bo'lish baxti nasib etgan kelajagi buyuk davlat mustaqilligining ikki yilligini qalbimiz to'la iftixor hislari bilan bayram qilmoqdamiz. Abadiyat dunyosining bir daqiqasi hisoblanmish istiqlolning ikki yili iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotimizda serhosil yil bo'ldi.

Muhimi, ikki yillik tarix ortga qaytish aslo mumkin emasligini ko'rsatdi. Mustaqillikni mustahkamlash yo'lida o'zini Vatanning ajralmas bir bo'lagi deb his etgan yurtning har bir asl farzandi yurtdoshimiz atrofida elning tinchligi, totuvligini, baxtli kelajagini qaror toptirish yo'lida yanada mustahkamroq birikmoqda, o'z kuchiga, qudratiga ishonib, yaratuvchilik faoliyati bilan nurafshon kelajak sari dadil qadamlar bilan bormoqda. Bundan ham ulug'roq iftixor bo'lishi mumkinmi!

Mustaqillik xalqimizning ulkan g'alabasi, baxti. Bu g'alabani bo'xronlardan saqlashimiz, mustahkamlashimiz kerak. Mustaqillik insonda mag'rurlik, o'z-o'zini bilish, qadrlash his-tuyg'ularini uyg'otuvchi siyosiy hodisa. Bu tuyg'u qiyinchilik bilan qo'lga kiritilgan mustaqillikni har soha bo'yicha mustahkamlash va kengaytirishga, uni oddiy hayot tarziga aylantirish uchun xizmat qilmog'i lozim. Shu vajdan ham mustaqillik bizning kechagi, bugungi va ertangi kunimizdir.

Mustaqillik sharoitida Respublika ma'naviy boyligini tiklash va uni kamol toptirish, ilmu fanimiz, adabiyotimiz va san'atimizni umumbashariy maydonga olib chiqish, qadimdan hududimiz xalqlariga xos bo'lgan, katta harflar bilan yozilgan odamgarchiligimiz, insonparvarligimiz yangi mazmun bilan boyitilib, el-yurt havas qilsa arzigulik darajaga ko'tarilmoqda.

Barkamollikka da'vogar xalqgina mustaqillik mevalaridan bahramand bo'lishga loyiqdir. Tarixdan ma'lumki, qaysi bir xalq ma'naviy jihatdan qanchalik ertaroq barkamollikka erishgan bo'lsa, shunchalik ertaroq o'z istiqlolini qo'lga kiritgan. Odamlar orasida "ilgarigi kunlarimiz yaxshi edi" deguvchilar topilib turgan hozirgi sharoitda istiqlolning millat va uning kelajagi uchun buyuk ne'mat ekanligini uqtirish, xalqimizning Prezidentimiz I. Karimov atrofiga jiplashishini ta'minlash har bir ziyoli, dehqon va ishchining vatanparvarlik burchidir.

Vatanparvarlik — milliy manfaatlarni, millat taqdirini va istiqlolni chuqur o'ylash va anglash bilan bog'liq bo'lgan ma'naviyatdir. Kishilarda vatanparvarlik tuyg'usi qanchalik teran bo'lsa, mustaqillik ham shuncha barqaror bo'ladi. Vatanparvar kishi hozirgi murakkab davrda ham bugungi kundan ko'ra ertangi kunga ko'proq ishonadi, u haqda o'ylaydi.

"Men qayda bo'lmay va kim bilan uchrashmayki, — degan edi I. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasida, — ertangi kun haqida olijanob fikrlarni eshitib, ochiq chehralarni ko'rib, yurtdoshlarimiz qalbidagi ishonch va umidni sezib, har doim o'zimni el-yurtimiz oldida qarzdor deb sezaman".

O'zbekiston — mening Vatanim. Men respublikamizning faraxbaxsh ertangi kuni bilan faxrlanaman. Men shu buyuk davlatning fuqarosi, ziyolisi, egasi ekanman, bu yo'lda faqat aqlu irodamni emas, butun umrimni shunga fido qilishga tayyorman. Shunday ruh nazarimda O'zbekistonning barcha vatanparvar o'g'lonlariga xos sifatlar bo'lsa kerak deb iftixor bilan o'ylayman va shunga umid qilaman.

KAMOLOT ZAMINI

1991 yilning 31 avgustida o'zbek xalqining insoniy huquqi — o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ro'yobga chiqdi, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi va u mamlakatimiz kamolotining zaminiga aylandi. Mustaqillikning ikkinchi bahorini ko'rib, u nimalarga qodir ekanligini, nimalar berayotganligini qalbdan his etib turibmiz.

Ma'lumki, mustaqillikni, erkni hech kim, hech qachon bировga shundayligicha bermaydi. U kurash bilan olinadi, qaram o'lkalarning boiligini talash, milliy qadriyatini kamsitishga o'rganib qolgan kolonizatorlar hech qachon o'zlariga qaram bo'lgan xalqlar to'la mustaqil bo'lib ketishiga ixtiyoriy ravishda yo'l bermaganlar. Ular mustaqillik e'lon qilinganidan keyin ham mustamlakachilikning yangi yo'llarini izlayveradilar.

Elga o'zini buyuk madadkor qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan davlatlar "yordam" bahonasi bilan mustaqil bo'lgan mamlakatlarga o'zining ruhini, odatini, dunyoqarashini kiritishga, mamlakatda uni ich-ichidan notinch qiluvchi omillarni yaratishga shoshilmoqdalar. Demokratiya bahonasi bilan mustaqillikka erishgan mamlakatlarga g'arbona demokratiyani, g'arbcha ishlab chiqarish usulini olib kirishga urunmoqdalar. Uzlari tanlagan, o'z tarixidan kelib chiqadigan yo'llarni yopishga, ularni yangi zamon ruhiga moslangan, nomigagina teng, aslida esa qaram, tekin xom ashyo bazasiga, o'tmagan molini sotadigan bozorga aylantirishga harakat qilmoqdalar. Ha, mustamlakachilikning tabiati, uning tekin tomoq psixologiyasi shunday. Bu — zamonning har bir daqiqasiga moslashib oladigan lo'ttiboqlikdir. U mustaqillikka erishgan davlat siyosiy kuchlaridan hamisha sezgirlik, o'tkirlikni talab qilgan.

Yana biz shuni ham ko'rib turibmizki, mustaqillik xalqni buyuk kuchga, qudratli to'lqinga aylantirib yuborar ekan. Xalq mustaqillikni mustahkamlash yo'lida g'ov bo'lib turgan har qanday to'siqni, qiyinchilikni engish uchun qudrat topa olar ekan. Buni biz O'zbekiston misolida ko'rib turibmiz.

Kurashlar bilan qo'lga kiritilgan mustaqillik esa ayni vaqtda respublika zimmasiga og'ir siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolar, qiyinchiliklarni yuklaydi.

Ijtimoiy hayotda davlatlar mustaqilligining o'zi nisbiydir, chunki ular o'zaro iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy munosabatlardan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Munosabatlar sistemasida mustaqil davlatlar o'zaro munosabatlarning zarurligini, boshqa davlatlar manfaatlarini qattiq hisobga olish kerakligini benihoya yuksak darajada anglashi ular bilan munosabatni kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni o'zidek ko'rish, his etish talab qilinadi. Bu jarayondagi izchillik va siyosiy madaniyatlilik Respublika mustaqilligi doirasini yanada kengaytiradi, uning obro'siga obro' qo'shadi.

Mustaqillik xalqimizning orzu-umidlarini o'zida mujassam qilgan qadriyat sifatida, birinchi galda Respublika fuqarolari siyosiy faoliyatining, demokratik jarayonlarning ham natijasi, ayni vaqtda bu jarayonlarni takomillashtirishning zamini hamdir. Mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy qadriini mustahkamlash uchun Respublikada ko'ppartiyalilikka, demokratik faoliyatga, partiyalararo muloqotga keng yo'l berildi. Xalqning siyosiy aktivligini oshirishga xizmat qiladigan barcha tadbirlar Konstitutsiyaga asoslanib, qonun doirasida olib borilmoqda.

Mustaqillikka qadar Kommunistik partiyadan uning mafkurasidan boshqa partiyani, siyosiy tashkilotni, mafkurani tasavvur qilish mumkinmidi? Yoki, jamiyatda rahbar partiyaning bir qator siyosiy partiya, xalq harakatlari bilan ochiq va erkin muloqotini, ularning umumiy maqsad yo'lida bir-birlarining tajribalaridan foydalanishlarini, mamlakatda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatning keng jamoatchilik tomonidan erkin muhokama qilinganini ko'rish mumkin bo'larmidi, yo'q. Bu siyosiy erkinliklarning barchasi mustaqillik tufayligina qo'lga kiritilgan yirik siyosiy g'alabamizdir.

Albatta, siyosiy mustaqillik birdan hazm qilinaveradigan ijtimoiy hodisa emas. Unga ham ma'lum vaqt, malaka, ko'nikma talab qilinadi.

So'zsiz, kelajak bugundan boshlanadi. Biz bir kunda demokrat bo'lib qolishimizning hech iloji yo'q. Qonimizda 130 yildan ortiqroq hukmron bo'lgan qaramlik asoratlari, qalloblik va zo'ravonlikka tayangan "ma'muriy sotsializm" qattiq o'mashib olgan. Shuning uchun mustaqillikning demokratik ruhi xalq qalbiga qattiq kurashlar, izlanishlar orqali kirib bormoqda, xalqning o'zi shu demokratik qadriyatlarni bir qator siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlarni engish jarayonida yaratib bormoqda, ularda ayni vaqtda yuksak onglilik, fidoiylik, bir tan va bir jon bo'lib kelajak uchun kurash, turli qarash va fikrlarni bir maqsad yo'lida uyg'unlashtirish ko'nikmasi shakllanib bormoqda.

Mustaqillik mamlakatda birinchi marta to'ralarning maslahati, tanlovi, ko'rsatmasisiz uz Prezidentimizni o'zimiz saylashimiz imkonini berdi. Axir respublika mustaqillikni qo'lga kiritgunga qadar Prezidentni saylash u yoqda tursin, viloyat hokimlarini tayinlash u yoqda tursin, yoki xalq ruhi, taqdiriga mos Konstitutsiyani qabul qilish u yokda tursin, hatto dalamizning qaysi chekkasiga nimani qachon ekishimizni ham markazdagi to'ralardan so'rar edik. Ularning qosh-qovog'iga qarab kun ko'rar edik. Ularning izzat-nafsi deb o'zimizni turli ofatlarga giriftor qilar edik.

Mustaqillik tufayli Respublikamizning ko'pchilik ahli bir ovozdan mustaqillik darg'asi I. A. Karimovni jumhuriyatimizning birinchi Prezidenti qilib sayladi. Birinchi bo'lish hamisha qiyin. Ayniqsa, Islom Abdug'anievichga, chunki u kishiga ishni bir tomondan, ilgari SSSRdagi markazdan boshqariladigan respublikalararo zo'rlikka asoslangan qonuniy iqtisodiy munosabatlar chil-parchin bo'lgan, mahsulot etishtirishga ham, xom ashyo topgan uskuna topolmay, uskuna topgan mutaxassis topolmay, mutaxassis topgan mahsulotini sotolmay qolgan sharoitda, qimmatchilik va etishmovchilik to'xtovsiz ko'tarilib borayotgan, ish topolmayotganlar soni oshib, reket, mafiya, chayqov va boshqa illatlar orqali bir hovuch kishilar katta boylıklar orttirayotgan, shaharlarimizda, qishloqlarimizda nokas kishilar, guruhlar tomonidan talonchilik, zo'ravonlik sodir qilinayotgan, etim-esirlar, nogiron kimsalar, ko'p bolali oilalarning iqtisodiy ahvoli og'irlashib borayotgan davrda; ikkinchidan esa, totalitar, ma'muriy-buyruq-bozlik partiya-davlat tizimi davridan meros bo'lib qolgan iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar, qarashlar, qimmatlar, mafkura qon-qoniga singib ketgan, yangicha gapirib, eskicha ishlaydigan ancha-muncha rahbarlar, fuqarolar bilan boshlashiga to'g'ri keldi.

Bu, ochig'ini aytish kerakki, juda katta mas'uliyat edi. Ahamiyatlisi shundaki, bu mas'uliyatni Prezidentga jumhuriyatning sog'lom fikrdagi, mustaqil respublikaning baxti, kelajagiga ishongan, o'zlarini bag'ishlagan million-million fuqarolar o'z xohishlari bilan guvohlik berib, ishonib topshirdilar. Shuning uchun respublika oldida turgan barcha murakkab vazifalarni yurtboshimiz xalq bilan uzviy birlikda peshma-pesh hal qilib bormoqda. Ha, birlikda hal qilinmaydigan hech qanday muammo yo'q.

Shu birlikning mevalarini paxta yakkahokimligiga qarshi ochiqdan-ochiq kurashda, yuz minglab gektar erning aholiga shaxsiy tomorqa sifatida berilishida, fermer xo'jaligini, tad birkorlik bilan ish yuritish, shahar, qishloq aholisining ijtimoiy turmush sharoitini tubdan yaxshilashda, kamxarj oilalarni ijtimoiy himoyalashda, qisqasi — insonning insoniy o'rniga qo'yilishida va boshqalarda ko'rmoqdamiz. Bu ishlar hali kuchli markaz o'z qudratini yo'qotmagan, yo'qotishni xayoliga ham keltirmagan paytlardan boshlangan edi. Bu ishlarni o'ziga ishongan, mard, xalqiga sadoqatli, o'zgalarning g'am-tashvishi bilan yashay oladigan Prezident amalga oshirishi mumkin edi, xolos.

Yurtboshi o'z nutqlari, dasturlari bilan emas, balki amaliy ishi bilan qadrlanadi. Amaliy faoliyat uning kimligini, uning axloqi va etikasini, iymoni butunligini tasdiqlaydi.

Murakkab damlarni boshdan kechirayotgan mustaqillik in'om etgan Prezidentimiz xalqni o'zining insoniyligi, mehnatsevarligi, oddiyligi, donoligi, gayratliligi, murakkab ijtimoiy-siyosiy

holatni tezda aniq his qila olishi, ulardan nazariy xulosalar chiqara olishi, cho'rtkesarligi, o'zi ishongan narsaga boshqalarni ham ishontira olishi bilan uyushtirib, aniq maqsad sari etaklamoqda.

Yana shuni alohida qayd qilish kerakki, Prezident qanchalik salohiyatga ega bo'lmasin, u ham barchamiz singari benuqson bo'lmagan bir inson. Shuning uchun ham ma'lum ziddiyatli masalalarni hal etishda Prezident mutlaqo haq ekanligidan emas, balki biz bilan elkama-elka yashayotgan, ishlayotgan inson sifatida, o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda fikr bildiradi. Lekin hamma gap ko'pchilikning insoniy qadr-qimmatini, huzur-halovati, tinchligi va osoyishtaligini himoya qilgan holda muammolarning echilishidadir.

Prezident hammaga bir xil munosabatda bo'lishi mumkin emas. Uning faoliyati asosida qonun, faqat qonun yotmog'i kerak. Uning diqqat markazida hamisha jumhuriyat birligi, obodligi, xalqining sog'lomligi, baxtli turmushi, unga raxna soluvchilarga shafqatsizlik turmog'i lozim.

Prezidentlikning amalga oshishida parlament, hukumat a'zolari, vazirlarning roli benihoya kattadir. Prezidentni ulug'laydiganlar ham, uning yuzini erga qaratadiganlar ham birinchi galda shulardir, Shu boisdan Prezident o'zining uyushgan hamfikir, jasur maslakdoshlariga, boshqaruv komandasiga ega bo'lishi shart. Bu komanda bir qo'li bilan aholining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy pulsini ushlab tursa; ikkinchi qo'lini zahmatkash ziyolilar tomon uzatishi kerak. Shunday bahamjihatlik respublikani tang ahvoldan olib chiqishning muhim vositalaridan biridir.

Prezidentning quvvati uning Prezidentligidagana emas, balki xalqning unga ishonishidadir. U o'z quvvatini xalqidan oladi. Bugungi kunda xalqimizning unga bo'lgan ishonchi benihoya yuqoridir.

"Qadrlil Islom Abdug'anievich! O'z ona yurtimizni, davlatimizni mustaqil ko'rish har birimizning qalbimizga bitmas-tuganmas g'urur va shodlik baxsh etadi, — deb yozadilar bir guruh faxriylar o'zlarining yurtboshimizga yo'llagan maktublarida, — Siz ichki va tashqi faoliyat sohasida yurgizayotgan oqilona siyosatni astoydil, chin ixlos va chuqur e'tiqod bilan qo'llab-quvvatlaymiz.

Ulug' niyatlarni amalga oshirishda biz bobolar, bizlarning bolalarimiz va nabiralarimiz Siz bilan yonma-yon, Siz bilan kamarbastadirlar. Faxriylar siz boshliq hukumat bizga ko'rsatayotgan saxovat va najotdan g'oyatda minnatdor bo'lmoqdalar.

Biz faxriylar, eng avvalo, Sizga Ona yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashda, O'zbekistonning yanada gullab-yashnashida, mehnatsevar, kamtar, olijanob xalqimizning tinchligi, osoyishtaligani ta'minlashda, xalqimizning hayotini farovon qilishda, rizq-ro'zimizni but etishingizda, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi mushkullarni engishingizda, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishda olib borayotgan qiyin va murakkab, ulug'vor va saxovatli ishlaringizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Biz faxriylar ko'p millatli barcha mehnatkashlar nomidan Sizni ishontirib aytamizki, yangi jamiyatni barpo etish yo'lida barcha Siz amalga oshirayotgan ishlarni bajararmoqlikka o'zimizni safarbar deb bilamiz".

Mustaqillik bizga o'z Konstitutsiyamizni o'zimiz tepadan berilgan andozasiz, chegarasiz qabul qilish imkonini berdi. Prezidentimizning bevosita rahbarliklarida tayyorlangan O'zbekiston Konstitutsiyasi BMT hujjatlari, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, xalqaro huquqning barcha e'tirof etgan qoidalari, rivojlangan demokratiya mamlakatlari hisoblanmish AQSh, Yaponiya, Kanada, Olmoniya, Frantsiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya hamda Sharq mamlakatlari — Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiya tajribalaridan ijodiy foydalangan holda, xalqimizning irodasi, ruhiyati, ijtimoiy ongini va madaniyatini aks ettirgan, O'zbekiston xalqining munosib turmushini, xuquqlari va erkinliklarini kafolatlaydigan, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizni qayta tiklash imkonini beradigan, insonning ma'naviy kamol

topishiga ko'mak beruvchi, uning huquqiy kafolati bo'lgan hujjatdir.

Istiqlol tufayli qabul qilingan Konstitutsiyamiz inson huquqlari va davlat mustaqilligi g'oyalarini sadoqatli, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanish, demokratiya va qonuniylikni hurmatlash, xalqaro huquqning jahonda e'tirof etilgan qonunlarini tan olish, O'zbekiston fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar huquqiy jamiyat barpo etish, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatligini, hurfiylik, vijdon va diniy e'tiqod erkinligini kafolatlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutqlarida Islom Abdug'anievich: "Biz so'nggi etmish yil ichida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik. Mamlakatning, undagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblab keldik. Ana shu masalada Konstitutsiyada tub burilish yasalgan, ya'ni "davlat, uning idoralari va mansabdor shaxslari jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar". Sobiq totalitar davlat sharoitida bunday fikrni hech kim xayoliga ham keltira olmasdi. Endilikda inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi", — dedilar. Mustaqillik bizga ona sutidek halol, ota nomusidek tabarruk, ajdodlar ruhidek muqaddas ma'naviyatimizni qayta tiklash imkonini berdi.

Mana, masalan, Navro'zni bu yil ham zo'r shodiyonalik bilan bayram qildik. Xalq navro'z, hayit va boshqa shu kabi el kashf qilgan urf-odat, an'ana sayillari bilan tirik, shular tufayli uyushadi, birikadi, xalq sifatida namoyon bo'ladi. Buni yaxshi bilgan "uzoq markaz"dagilar iloji boricha ularni turli vajlar bilan xalqdan begonalashtirishga harakat qildilar. Begonalashtirdilar ham. Ularning o'rniga xalqimiz ruhiga yot qiyqiriq-chaqiriqlardan iborat rasmiy-siyosiy bayramlar kiritildi. Millatni uning ruhi va oynasi bo'lgan ona tilidan, iymoni bo'lgan dinidan judo qilishga harakat qildilar. Mamlakatda shunday ma'naviy-qistovli muhit paydo bo'ldiki, hatto odamlar yaqinlarining, ota-onalarining, aka-ukalarining, opa-singillarining azalariga borishdan ham qo'rqib qoldilar. Natijada xalq o'zidan o'zi tobora uzoqlashib, begonalashib bordi.

130 yildan ortiqroq vaqt ichida xalq mustaqillik yo'lida ne-ne mashaqqatlar chekib, ne-ne qurbonlar bermadi. Boy tarixi va madaniyatiga ega bo'lgan, dunyoga mashhur bo'lgan olimlari, yozuvchilari bilan tanilgan o'zbek xalqi o'z tilini, dinini, milliy g'urur va iftixorini, butun ma'naviyatini, o'zligini yo'qotish darajasiga etib kelgan edi. Hatto bayrog'iga erkinlik yozilgan sho'rolar zamonasida ham xalqning ma'naviy mustaqilligi yo'lida erk izlab ijod qilgan Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Usmon Nosir kabi el farzandlari qatag'on qilindi. Milliy mustaqillikka hatto shama alomatlar bor fikrlarni bayon etgan ziyolilarimiz peshma-pesh qatag'on qilib turildi.

Mustamlakachilikning zarbdor zambaraklari o'zbeklarni o'z tarixidan judo qilishga qaratildi. Tariximizning shuhratli o'g'lonlari elga kallakesar qilib tanitildi. Qizig'i shundaki, "Vatanimiz" tarixida Aleksandr Nevskiy, Buyuk Pyotr, Suvorov aziz sarkardalar sifatida qizil chizgilar bilan berilsa, Sohibqiron Temur qora chizgida, elni vayron qilgan yo'lto'sar sifatida berilgan. Qani bunda oddiy insoniy adolat?!

Ha, adolatsizlikning ham o'z mantig'i bor. Qahramoni bo'lmagan xalq o'limga, ezilishga, xo'rlikka mahkum bo'lgan xalqdir. Mantiq shunga olib keladi. Shuning uchun bo'lsa kerak Shohruhning o'g'li, Fors o'lkasining hukmdori Ibrohim Sulton bobosi Amir Temur haqida bir mukammal va haqqoniy tarix bitib qoldirmakka ahd qilgan. Mazkur tarixga oid ancha ma'lumotlar yig'ilgach, ularni qattiq tekshiruvdan o'tkazib, mashhur tarixchi Ali Yazdiyga "Zafarnoma"ni yozishni buyurgan, buyurganda ham Sohibqironning kelib chiqishidan tortib to umrining oxirigacha bo'lgan davr aniq bayon qilinishi, tarixda Amir Temur nasabi to Odam Atogacha etkazilishi talab qilingan. Ibrohim Sulton "Zafarnoma"ni yozishga farmon berganida Sohibqironning jangu-jadallarini o'qigan kishi tabiiyki, uning nasl-nasabi bilan ham qiziqadi, degan xulosaga kelgan.

Sho'rolar zamonida nasl-nasabimiz haqida og'iz ochmay keldik. Moskvaning roziligisiz Amir Temur haqida, uning O'rta Osiyo madaniyatini rivojlantirishdagi roli haqida umumiy fikrlarni bayon qilganligi uchun atoqli faylasufimiz I. M. Mo'minov hayotdan erta ko'z yumdi. Boshqa qancha-qancha olimlarimiz, yozuvchilarimiz "byuro" azoblarini ko'rdilar.

Mana, bugun mustaqillik tufayli jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk davlat asoschisi, Sharqning ulug' sarkardasi, ilm-fan tashkilotchisi va homiysi, milliy madaniyat va me'morchilik san'atini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan shavkatli bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur yana tariximizga o'z g'ururi, bayrog'i, izzat-hurmati bilan kirib keldi. Mustaqilligimizning ikki yili bayram qilinadigan kezlarda Toshkent shahrining qoq o'rtasida uning siymosi aks ettirilgan haykal ochiladi.

Xalqning qadimiy bayrami bo'lgan navro'z kabi milliy an'analar, uning iymoni bo'lgan din, ma'naviy gavhari bo'lgan til Prezidentimizning izchil siyosatlari tufayligina o'z egalariga qaytdi. Vatanda yashab bevatanklik dahshatini ko'rilgan kunlar kishilarimiz hayotidan uzoqlashdi. Iymon, e'tiqod erkinligiga keng yo'l ochilib, ulug'vor sajdagohlarimiz tomon shukronalik bilan yuz burish baxtiga muyassar bo'ldik. Istiqlol tufayli olib borilayotgan mumtoz milliy siyosat millatlar bag'riga ozodlik shabadasini tegizdi. Endi ular bir-birlarining katta-kichikligiga qarab emas, balki o'zaro tinchlik asosida bir-birini tushunib, kadrlab, bir-biri bilan yaqinlashib bormoqda. Ular bir el, bir xalq vakili sifatida mustaqil O'zbekistonning or-nomusi uchun kurashish ruhi bilan yashamoqdalar.

Bir mamlakatda yashayotgan yuzlab xalqlarning bunday jipslashishi, bir niyat orzusi bilan uyg'unlashishi respublikada millatlararo munosabatlar osoyishtaligini qaror toptirmoqda. Shuning uchun xalq navro'z bayramida ham, ramazon hayitida ham Davlatimiz rahbari haqiga shukronalar bilan duolar o'qidi, unga uzoq umr tiladi, yaratgandan iltijo qilib, u kishini xalqimizdan, xalqimizni u kishidan ajratmaslikni tiladi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ajralmas qismi bo'lgan milliy ma'naviyatimiz o'tmish, bugungi kun va kelajakning uzviy birligidan iborat bo'lgan hodisadir. Unda ma'naviy merosni to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarimizning muqaddas burchidir. Chunki masala boy madaniy, ma'naviy merosga ega bo'lishdagina emas, balki uni astoydil egallab, jamiki davr ma'naviyati bilan bog'lab, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarishdadir.

O'z madaniy merosini bilmaslik yoki uni nazar-pisand qilmaslik nonko'rlikdir. O'z madaniyatini yuksaklikka ko'tarishga intilmaslik, jahon madaniyatidan bahramand bo'lib, milliy madaniyatga yangi mazmun olib kirishga intilmaslik, milliy madaniyat ravnaqiga o'z hissasini qo'shmaslik mustaqillik, istiqlol oldida jinoyatdir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan millatgina porloq istiqlol, haqiqiy mustaqillik uchun kurashga o'zida kuch va qudrat topa oladi va bu kuch-qudrat bizda kelajagi buyuk davlatning qaror topishiga olib keladi.

Shunday qilib, bir so'z bilan aytiladigan mustaqillik, millat erkinligi, davlatning o'z ichki va tashqi siyosatini o'zi belgilashi, betakrorligidan boshlanuvchi olam-olam iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy erklarni mujassamlantirib, o'zining sehrli hayot ato etuvchi tafti atrofida butun boshliq xalqni uyushtiradi va biriktiradi. Shuning uchun ham bosqinchilar qaramlarga mustaqillik bermaslikka harakat qilganlar, qaramlar esa o'z navbatida mustahillik yo'lida har qanday zarbaga, kurashga tayyor turganlar. Tarixda hech kim, hech qachon, hech qaerda mustaqillikka osonlik bilan erishmagan. Jumladan, O'zbekiston ham.

Ba'zan ayrim kishilar mustaqillikka erishishimizni Respublika Oliy Kengashida Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi bilangina bog'lab jo'ngina tushunadilar. Ular mazkur qaror qabul qilingunicha, qaror qabul qilish jarayonida va qaror qabul qilinganidan keyingi mashaqqatli siyosiy kurashni, bu kurashda Prezidentimizning jonbozliklarini hamisha ham tasavvur qilavermaydilar. Mazkur mustaqillik, respublika taqdirini o'z taqdiri bilan bog'lagan siyosiy

yo'l boshchining izchil, mardona oqilona siyosati va kurashi bilan qo'lga kiritilganligini hamisha fahmlayvermaymiz.

Respublikamizning bugungi dolzarb vazifasi mustaqillikning barcha jihatlarini mustahkamlashdan iboratdir. Bu ayni vaqtda xalqimizning bag'riga erkinlik shabadasini baxshida qilgan yurtboshimizdan sobitqadamlik, xalqimizdan esa u kishi atrofida yanada mustahkamroq jipslashishni, birdamlikni ta'minlashni, sezgir bo'lishni, qo'lga kiritilgan bebaho insoniy qadriyatni ehtiyotlab, avaylab asrashni va qadrlashni talab qiladi.

IQTISODIY MUSTAQILLIK CHORRAHALARIDA

Mustaqillik o'z iqtisodimizni o'zimiz yaratishimiz, boshqarishimiz imkoniyatini berdi. Siyosiy mustaqillikka tayangan holda biz iqtisodiy rivojlangan, xalqi ozod, farovon yashovchi demokratik jamiyatni yaratmoqdamiz.

Rivojlangan iqtisod-mamlakat mustaqilligining bosh mezoni. Biz ishlab chiqarish va xalq iste'moli jihatdan kam rivojlangan davlatlar qatoriga kiramiz. Ammo mustaqil siyosat yurgiza borib, o'zimizning iqtisodiy tizimimizga asos soldik. Buning guvohi moliyaviy tizimning mustaqil yo'lga o'tishi, o'z bank sistemamizning yaratilishi, kelajakda o'z milliy pulimizning joriy etilishi, mustaqil byudjet va kredit sistemasiga amal qilish, tashqi aloqalarning mustaqil o'rnatilishi va eng muhimi, milliy mulkchilikka asos solinishidir.

Iqtisodiy mustaqillikni, milliy manfaatlarni himoya qiluvchi bir qator farmonlar, qaror va qonunlar qabul etildiki, ular orasida mulx, er, xususiylashtirish, bank tizimi, tadbirkorlik, fermerlik, chet el investitsiyasi to'g'risidagi qonunlar alohida o'rin tutadi. Iqtisodiy poydevori bo'lmagan istiqlol bamisoli tomiri zaif daraxtdirki, u dovul-bo'ronlarga bardosh bera olmaydi. Bas, shunday ekan mustaqillikni endilikda iqtisod bilan ta'minlash kerak. O'zbekiston o'z milliy boyligining mulkdoriga aylandi. Endilikda bu mulkni xalq tasarruf etadi, u xalq manfaati yo'lida ishlatiladi. Mustaqillik yo'li bozor iqtisodiga o'tish bilan bog'liq. Shu sababdan milliy mulkchilik iqtisodiy plyuralizmga (xilma-xillikka) asoslanadi, ya'ni u davlat, jamoa mulki, aralash mulk va fuqaro mulki shaklida namoyon bo'ladi. Paydo bo'lgan xususiy mulk ham milliy mulkchilikning ajralmas qismidir, u ham mustaqillikka xizmat qilishi kerak. Albatta, hozirchalik davlat mulki mustaqillik tayanchi bo'lib xizmat qiladi, chunki davlatdan o'zga milliy manfaatlarni ifodalovchi yaxlit kuch yo'q.

Ammo mustaqillik yo'lida iqtisodiyotni barqaror o'stirish uchun uni harakatga keltiruvchi ichki bir _ intilish zarur. Buni davlat mulki monopoliyasini cheklash va xususiylashtirish yuzaga keltiradi, chunki shu orqali mulkning turli raqobatlashuvchi shakllari paydo bo'ladi, raqobat esa bozor iqtisodini harakatga soluvchi kuch hisoblanadi. Ammo privatizatsiyaning o'zi o'zi uchun emas, albatta, u iqtisodiy o'sishga, iqtisodni yangilashga, ya'ni uning modernizatsiyasiga xizmat qilishi kerak. Buning uchun mulkning bir qismini davlat tasarrufidan chiqarib, uni samarali ishlata biluvchi tadbirkorlar qo'liga berish zarur. Agar ishonchli tadbirkorlar, ishbilarmonlar, ya'ni bizneschilar qatlami hosil bo'lmasa, xususiylashgan mulk istiqlol uchun xizmat qila olmaydi. Mulkn kimning qo'liga berishni bilish o'zi katta gap, chunki busiz iqtisod ravnaq topmaydi, mustaqillik ishonchli moddiy asosga ega bo'lmaydi.

O'zbekiston mustaqillikni iqtisodiy qoloqlik sharoitida qo'lga kiritganligi sababli ham jumhuriyat faqat o'z kuchiga tayanib inqirozdan qutulib ketishi og'ir masala. Boshqa mamlakatlar, ayniqsa Sharq mamlakatlari tajribasi ko'rsatganidek, iqtisodiyotni o'nglab olish uchun albatta chet el kapitali kiritilishi kerak. O'zbekiston tabiiy resurslarga boy o'lka, jumhuriyatda arzon ish kuchi ham mavjud. Hamma gap O'zbekistonda chet el kapitalini jalb eta bilishda qolgan. Har ikki tomonga manfaatli shartlar bilan xorijdagi mablag'larni jalb etish iqtisodiyotni o'stirishi shubhasiz. Chet eldagi kapital, ilg'or texnika va texnologiya boy ishlab chiqarish tajribasini keltiradi. Xorijiy firmalarning aloqalaridan foydalanib jahon bozoriga keng chiqishimiz mumkin.

Mustaqillik nuqtai nazaridan hozir biz uchun qarz kapitalni kiritash, ya'ni chetdan qarz olib, shu hisobidan o'zimiz ishlab chiqarishni tashkil etishimiz ma'qul emas. Biz uchun eng qulay yo'l chetdan unumli kapitalning kelishi, ya'ni O'zbekistonda chet el firmalarining filiallari ochilishi, ularning mulki bo'lgan korxonalarni ular bilan sherikchilikda qo'shma korxonalarni barpo etishdir.

Iqtisodiy mustaqillikka erishishning muhim muammosi bu ishlab chiqarish strukturasi tubdan yaxshilashdir. Hozirgi agrar-kolonial struktura o'rniga industrial struktura kerak. O'zbekiston qoloqligining muhim belgisi shuki, hozirgi milliy daromadni yaratishda sanoatning

hissasi pasayib ketgan. 1992 yil 1 yarmida uning hissasi milliy daromadda atigi 30 foiz bo'ldi. Buning ustiga sanoatda yaratilgan daromadning talaygina qismini tayyor mahsulot beruvchi emas, balki xom ashyoni birlamchi ishlovchi tarmoqlar yaratadi. Bu tarmoqlar qishloq xo'jaligini va undirma sanoatda olingan xom ashyoni dastlabki ishlovdan o'tkazib, ulardan boshqa respublikada tayyor mahsulot olish uchun etkazib berish bilan shug'ullanmoqda. Ular Rossiya, Ukraina va Belarus sanoat markazlarini arzon xom ashyo bilan ta'minlashga xizmat qildilar. Biryuqlama ishlab chiqarish strukturasi O'zbekistonning qaramligini kuchaytirdi. O'zbekistonda yaratiladigan jami mahsulotning 40 foizi boshqa erlardan kerakli ashyo, material, yoqilg'i, asbob-uskunalar va mashinalarni keltirishga bog'liq. O'zbekistonda ishlatiladigan iste'mol tovarlarining yarmidan ko'prog'i (60 foizi) chetdan keltiriladi. Bunday ahvoldan xoli bo'lish uchun ishlab chiqarish strukturasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha borgani ma'qul:

1. Yaratilishi mumkin bo'la turib, chetdan keltirilayotgan tovarlarni shu erning o'zida ishlab chiqarish;
2. Eksportga, xalqaro bozorga, binobarin valyuta topishga mo'ljallangan mahsulotlarni ko'plab ishlab chiqarish;
3. Fan-texnika yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, ilmtalab mahsulotlarni ko'plab ishlab chiqarish.

Bozor munosabatlariga o'tish ayni vaqtda noishlab chiqarish faoliyatini ham qamrab olishi kerak. Noishlab chiqarish sohasidagi islohot shu sohaning mohiyati va funktsiyasiga yangicha nazariy qarashni, unga yangicha kontseptual baho berishni talab qiladi. So'nggi yillarga qadar mazkur sohaga ortodoksal marksizmning dogmatik qoidalari jihatidan qaraldi, unga unumli va uzluksiz mehnat kontseptsiyasi asosida baho berildi. Ortodoksal kontseptsiya unumli mehnat deb, faqat natijasi moddiy shakldagi mehnatni, moddiy ishlab chiqarishdagi mehnatni tushunadi. Uning qoidalariga ko'ra, natijasi moddiy shaklda bo'lmagan, mehnat unumsiz deb qaraldi. Bu bilan noishlab chiqarish sohasidagi mehnat kamsitildi, uning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rniga xolisona baho berilmadi. Mana shunday nazariy-metodlogik yondashuv natijasida noishlab chiqarish sohasiga kerakli resurslar ajratilmadi, rivoji jihatidan orqada qolib ketildi.

Albatta, mazkur soha islohotga muhtoj. Noishlab chiqarish sohasi ishlab chiqarishga bog'liq, chunki undan moddiy resurslar oladi, ammo uning boqimandasi emas. Bu sohadagi mehnatni ham unumli deb qarash vaqti keldi, chunki u yaratgan xizmatlar iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Garchi bu erdagi mehnat natijalari nomoddiy shaklda bo'lsada, u jamiyatning ehtiyojini qondiradi, ishlab chiqarishga naf keltiradi. Shuni aytish kifoyaki, xizmat ko'rsatish sohaslarida ilg'or mamlakatlarda ishlovchi aholining deyarli 60 foizi mehnat qiladi. Bu bejiz emas, albatta, chunki uning ahamiyati ulkan. Ilg'or mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning 85 foizini fan-texnika taraqqiyoti va ishlovchilar ta'lim darajasining ortishi beradi. Endilikda eskicha fikrdan voz kechib, noishlab chiqarish sohasi deganidan ko'ra xizmat ko'rsatish sohasi yoki infrastruktura degan ma'qul bo'ladi. Shunday tushuncha g'arb adabiyotida keng ishlatiladi. Albatta infrastruktura sohasidagi islohotni iqtisodiy islohotning bir qismi deb qarash zarur. U ham bozor munosabati tomon olib borishi kerak, chunki ishlab chiqarish bozor munosabatiga ko'chgan holda infrastruktura boshqacha bo'lishi mumkin emas. Iqtisod yaxlit bo'lganidan uning turli bo'g'inlari har xil printsiplarga tayanib amal qila olmaydi. Shu boisdan bozor munosabatiga o'tish hamma soha uchun ham farz, ham qarz bo'ladi. Infrastruktura sohasi islohoti ham sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tkazilishi kerak, chunki bu sohada amal qilib turgan eski mexanizmni yangi bozor mexanizmiga darhol almashtirib bo'lmaydi, chunki ular tabiatan har xil. Bu ishdagi shoshmashosharlik aholiga xizmat ko'rsatishni izdan chiqarib yuborishi mumkin. Xizmat sohaslari islohoti ularni 3 yo'nalishda borishini hisobga olishi kerak: birinchisi — privatizatsiya, ikkinchisi — kommertsializatsiya, uchinchisi — to'la liberalizatsiya.

Xizmat sohalari ham monostrukturadan polistruktura tomon rivojlanadi. Bunda privatizatsiya asosiy yo'l bo'ladi, chunki u davlat mulki monopoliyasi o'rniga xilma-xil mulkchilik va mulkiy muvozanatni ta'minlashi kerak.

Ammo privatizatsiya davlat mulkini tamomila yo'qotish emas, balki uni chegaralashtirishdir, chunki aholiga sotsial infrastruktura xizmatlarini etkazish kafolatini davlat o'z zimmasiga olishi mumkin. Bozor iqtisodi g'oyat malakali ish kuchini talab qiladi, uni tayyorlash xususiy emas, balki ijtimoiy funktsiyadir. Rost shunday ekan, sotsial infrastrukturada davlat mulkining bo'lishi shart, chunki shunday sotsial ehtiyojlar borki, ularni xususiy tadbirkorlik doirasida to'la qondirib bo'lmaydi. Masalan, sog'liqni saqlash, sport, ta'lim berish, malaka oshirish. Bu ishlar davlat bilan korxonalar va tashkilotlar hamkorligida qondirilishi mumkin. Shu boisdan privatizatsiya shiori ostida infrastrukturani ommaviy ravishda xususiylashtirish ma'qul bo'lmaydi. Faoliyatni kommertsializatsiyalash, ya'ni tijoratchilik asosiga ko'chirish hamma mulq shakllariga xos. Xizmat sohasidagi davlat korxonalari ham shu yo'l bilan bozor munosabatiga kirib borishlari mumkin. Kommertsializatsiya, albatta, xizmat haqi, ya'ni tariflarni, birinchidan, erkin shakllanishini, ikkinchidan, davlat nazoratidagi tariflarni ham qoldirishini bildiradi. Bozorga o'tish bosqichida xizmat sohasidagi narx-navoni ikkiyoqlama asoslanishi quyidagilardan kelib chiqadi:

1. Aholi o'z daromadi jihatidan keskin tabaqalanishi turgan gap, bu hozir ham yuz bermoqda. Ta'minlangan, kam ta'minlangan qatlamlar hosil bo'ladiki, ularni xarid qobiliyati va pulli xizmatlarga talabi har xil bo'ladi.

2. Iqtisodiy qiyinchilik aholining xarajatida katta o'zgarish yasaydi.

3. Tovar va xizmatlar taqchilligi tufayli aholi pul daromadining xarajatlardan ortib qolishi yuz bermoqda, bunda kechiktirilgan talab hosil bo'ladiki, u pulli xizmatlar tomon burilishi mumkin. Oila byudjeti ma'lumotiga qaraganda O'zbekistonda har bir oila hisobida daromadning xarajatdan ortiq qismi yil sayin ortib bormoqda.

Aholi daromadidagi siljishlar kommertsializatsiyaga zid ta'sir etadi: ta'minlangan tabaqalarning xizmatlarga talabi oshsa, kam ta'minlanganlarniki kamayadi. Aholida sotsial xizmatlarga o'tkinchi talab hosil bo'ladi. Masalan, ishsizlik kasb egallash, malaka oshirish xizmatlariga talabni oshiradi, lekin boshqa sotsial talablar qisqaradi. Aytilgan omillarni kommertsializatsiyalash jarayonida hisobga olinmasa, u muvaffaqiyatsiz bo'ladi, chunki xizmatlarga sarflangan resurslar o'zini oqlamay qo'ydi. Shu boisdan kommertsializatsiyaga ehtiyotkorlik bilan yondoshish islohotning talabidir.

Xizmat sohasida ikki sektorli rivojlanish bo'lishini nazardan qochirib bo'lmaydi: a) Kommertsializatsiyalashgan sektor, b) Ijtimoiy, ya'ni kommertsializatsiyalashmagan sektor. Binobarin, xizmat ko'rsatish pulli va pulsiz sohalari muvozanati aholi xarid qobiliyatini hisobga olmasligi mumkin emas. Mazkur nisbat ishlab chiqarishdagi islohotga ham bog'liq. Agar u chuqurlashib iqtisodiy o'sish stimuli ishga tushsa, aholi daromadi tez o'sib, kommertsializatsiya uchun moliyaviy asos yaratadi.

Umuman olganda islohot pulli xizmat sohasiga ustivorlik berishi ma'qul, chunki bu bozor munosabati talablariga mos tushadi, chunki u eng avval pul bilan muomala qilishni bildiradi. O'tish davrida tadbirkorlikning rivojlanishi va kelajak uchun aholining qayg'urishi xizmatlarga talabini o'zgartirdi. Ikki xil talab mavjud:

1) Ommaviy talab, u traditsion, ya'ni odatdagi an'anaviy xizmatlarga talab.

2) Tanlangan, alohidalashgan talab.

Ikkinchi turdagi talab sohibi bu faqat taminlangan tabaqa emas, balki yoshlar va kasbini o'zgartirishga moyil bo'lgan kishilardir. Tanlangan talab sotsial xizmatlar sohasiga ko'chmoqda. Ayniqsa u xorijiydagi xos, uni sifatli servis bilan qondirish valyuta topish

vositasidir.

Tanlangan talab bu safatli meditsina xizmatiga, dam olish va turizmga, maxsus kommunal xizmatiga bo'lgan talab, biznes sirlarini o'rganishga talab. Uning sohibi o'ziga to'q aholi qatlamidir. Yangi kasbni egallash, oliy, o'rta maxsus ma'lumot olishga talab yoshlar va ishsizlik xavfiga yo'liqqanlarda paydo bo'ladi: u boshqa talablarni, hatto iste'molni cheklash hisobiga paydo bo'ladi. Tanlangan talabning paydo bo'lishi, uni kommertsiya yo'li bilan qondirish mumkinligini bildiradi. Shuni hisobga olib maxsus pulli maktablar, bolalar bog'chasi va kolledjlar ochish, oliy maktablarga pulli qabulni kengaytirish mumkin, pulli meditsina xizmatlarini ham rivojlantirsa bo'ladi. Xizmat sohaslarini islohot orqali bozor munosabatlari zaminiga o'tkazish, ularni moliyalashtirish tarkibini o'zgartiradi. Endilikda u 3 yo'nalishda boradi:

1) Byudjet hisobidan moliyalashtirish, kommertsializatsiya sharoitida bu manbaning hissasi kamayib boradi.

2) Manfaatdor korxonalar, firmalar hisobidan moliyalashtirish. Bunda bepul xizmat ko'rsatuvchi sohaslar hissadorlik printsipiga binoan xo'jalik sub'ektlari tomonidan moliyalashtiriladi, ya'ni qo'shilgan pul ulushiga qarab xizmatlarda o'z bepul hissasiga ega bo'lish asosida mablag' bilan ta'minlash yuz beradi.

3) Kommertsiya printsipi asosida o'zini-o'zi moliyalashtirish. Bu pulli xizmatlarga xos bo'ladi.

Shu o'rinda pulli bilim oluvchi va kasb egallovchi fuqarolarga davlat imtiyozli kredit berishi ma'qulki, uni ishlab pul topganidan so'ng qaytarish mumkin bo'lsin. Shunday kredit g'arbda yaxshi natija berdi.

Infrastrukturadagi islohotlar, umuman bozor islohotlari kabi iqtisodda struktura siljishini yasash kabi strategik vazifani ham hisobga olish kerak. Struktura o'zgarishini muhim jihati bu xizmat sohasini jadal o'sishi, uni yalpi milliy mahsulot yaratishdagi hissasini ortishidir. Islohotlar mana shunday o'zgarishga stimuly berishi kerak. Ma'lumki, hozirchalik xizmat sohasining asosiy fondlar, ishlovchilar tarkibidagi va nihoyat milliy mahsulotdagi hissasi jihatidan O'zbekiston ilg'or mamlakatlardan bir necha bor orqada qolgan. Shu sohani jadallashtirish, uni o'stirish uchun katta moddiy, moliya va mehnat resurslarini jalb etish talab qilinadi. Albatta, bunga faqat bozor mexanizmi orqali erishib bo'lmaydi. Buning uchun albatta davlat ishtiroki talab qilinadi. Xizmat sohasini o'stirish dolzarb sotsial muammodir. Bu aholi joriy talabini qondirishgina emas, balki o'ta muhim sotsial muammoni — bo'lg'usidagi ishsizlikni yumshatish ham demakdir. Gap shundaki, xizmat sohasi sermehnat, chunki u odamga odamni xizmat qilishi bilan bog'liq, binobarin, u serkapital, serfond soha emas. Bu erda bir ishlovchi hisobidagi fondlar ishlab chiqarishga nisbatan ancha kamdir. Shu sababli bir ish joyini hosil qilish katta investitsiya talab qilmaydi. Mazkur soha aholini ish bilan ta'minlash uchun g'oyat muhimdir. Gap shundaki, O'zbekistonda ishsizlikning ortishini kutish mumkin. Ma'lumki, bir qator hamdo'stlik mamlaktlarida iqtisodiy tushkunlikka mos holda demografik tanglik kelib chiqdi. Iqtisod pasaygani holda, aholi o'sish sur'atlari pasaydi va hatto ayrim hollarda aholi umuman o'smadi, u kamaya boshladi. O'zbekistonda esa iqtisodiy kamomadlik aholining o'sish sur'atlariga deyarli ta'sir etmadi. Iqtisodiy va demografik jarayonlar teskari yo'nalishda borishi ishsizlik muammosini keskinlashtiradi. Shu sababli hamma choralar bilan xizmat sohaslarida qo'shimcha ish joylarini hosil etish zarur, ayniqsa xonaki xizmatlarni ko'paytirish foydalidir, chunki bu katta investitsiyani va ko'p vaqtni talab qilmaydi.

Aytilganlar shundan darak beradiki, prezident I. Karimov Qashqadaryo diyorida bo'lganda rahbarlar diqqatini noishlab chiqarish sohaslarini rivojlantirishga qaratgani bejiz emas, albatta.

Umuman struktura siljishlari katta mablag' talab qiladi. Hozir ularni davlat byudjeti orqali mustaqillik ishiga yo'naltirish mumkin. Hozirgi iqtisodiy qiyinchilik sharoitida davlat byudjeti sotsial-madaniy xarajatlarni qisqartirib investitsiya uchun mablag' to'plash va uni ishlab chiqarishga qo'yishi shart. Aks holda iqtisodiy jonlantirish yuz bermay, byudjet hozirgi daromaddan ham mahrum bo'ladi.

O'zbekistonning hozirgi byudjeti tangroq ahvolda bo'lsada, har holda mustaqil byudjetdir. Hozirgi iqtisodga murakkablik, byudjetga kamomad xos, lekin bu mustaqillik oqibati emas, bil'aks, bu inqiroz sobiq Sovetlar imeriyasi O'zbekistonga qoldirgan og'ir merosdir. Hozirgi sharoitda O'zbekiston qator iqtisodiy qiyinchilikka duch kelmoqda. Gap shundaki, O'zbekiston boshqalarga, jumladan Rossiyaga bog'liq, Rossiyadagi tushkunlik o'z ketidan O'zbekistonni tortib kelmoqda. Rossiya ekonomikasining 1992 yildagi ayanchli yakunlari O'zbekistondagi tanglikni kuchaytirdi. Byudjetdagi kamomadni oshirdi. Shuni hisobga olib, birinchidan, byudjetga daromad topish kerak, ikkinchidan, byudjet sarflari tejalishi shart. Shunday vaziyatda sotsial programmalarini byudjetdan moliyalashtirishni qisqartirmay turib, moliyaviy sog'lomlikka erishib bo'lmaydi. Byudjet defitsitining sababi ishlab chiqarishda. Tushkunlik sababli ishlab chiqarish hisobidan byudjetni bir-ikki yil ichida oshirish qiyin. Shu sababli byudjet pulini maksimal tejash har bir tashkilotning ishidir. Byudjetga ko'maklashuv maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash tashkilotlariga biznes bilan shug'ullanish uchun to'la erkinlik berish talabiga aylandi, toki ular o'z-o'zini qisman bo'lsa-da pul bilan ta'minlasinlar va byudjetga yuk bo'lmasinlar. Byudjetni tartiblash, uning daromadi va xarajatlarini muvofiqlashtirish, byudjetga yangi daromadlar manbaini topish, bir soliqni qisqartirib, boshqasini kiritish, byudjet xarajatlarini sotsial programmalar hisobiga kamaytirib ko'proq pullik sotsial xizmatlarini joriy etish talab qilinadi.

Mustaqillikning muhim belgisi O'zbekistonni xalqaro iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli sub'ektiga aylantirishdir. Hozirchalik bu sohada ilk qadamlar qo'yilgan. O'zbekiston o'z iqtisodini xalqaro iqtisodga qo'shib ulgurani yo'q, bu darhol bo'lmaydi. Uzoq yillar O'zbekiston SSSR eksportida uchinchi o'rinda turgan bo'lsa-da, hech qachon mustaqil aloqa yuritmagan, O'zbekiston molini sotishdan tushgan valyuta uning o'ziga tegmagan. Bu aloqalar markaz deb atalmish sobiq "umumittifoq" tashkilotlarning qo'lida bo'lgan. Endi O'zbekiston kim bilan aloqa yuritishini o'zi hal qiladi. Topilgan valyuta ham shu erda qoladi. Ammo O'zbekistonning tashqi aloqalarini rivojlantirishga xalaqit beruvchi omillar mavjud. Bu O'zbekistonda tashqi bozorga chiqadigan arzon transport yo'lining yo'qligi, tajribali mutaxassislarning etarli emasligi, konventirlangan, ya'ni erkin almashinuvchi valyutaning yo'qligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ammo bulardan qat'i nazar O'zbekiston mustaqil tashqi siyosat yurgizmoqdaki, shuning o'zi katta gap va bu istiqolol nishonasidir.

Mustaqillik iqtisodiyotda o'zini ko'rsata bilmasa, uning kelajagi porloq bo'lmaydi. O'zbekiston, umuman sobiq SSSR respublikalari mustaqillikka chuqur krizis davrida erishdi. Shu sababdan iqtisodni tezlikda o'nglab bo'lmaydi, ma'lumki asriy qaramlikni bir zarba bilan tugatish amrimahol, uning uchun mashaqqatli rivojlanish davri kerak. Nafaqat sobiq SSSR, balki sobiq sotsialistik sistemaga kirgan davlatlarning hammasida krizis chuqurlashdi. Bundan O'zbekiston xoli bo'la olmasdi, chunki uning iqtisodi boshqalar iqtisodi bilan uzviy bog'langan edi. Umumiy tushkunlik bo'lishiga qaramay Prezidentimiz Islom Abdug'anievich tomonidan ko'rilgan bir qator chora-tadbirlar tufayli O'zbekistonda tushkunlik darajasi boshqalardan ancha kamroq bo'ldi.

Bizda narx-navo boshqalardan arzonroq. Muhimi shuki, O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarni o'zida qayta ishlab chiqarishni tashkil eta boshladi, uning don mahsulotlari bo'yicha boshqalarga qaramligi kamaydi. Hozir boshqa erlardan qayta ishlaydigan qishloq xo'jaligi va undirma sanoat mahsulotlari O'zbekistonning o'zida ishlana boshladi. O'zbekistonda kam daromadli aholini sotsial himoya qilish etarli darajada yo'lga qo'yilgan. Dastlabki o'zgarishlar sezilib turibdi.

1993 yilning 18 iyunida Islom Abdug'anievich Karimov Shveytsariyadagi "Forum fond" xalqaro iqtisodiy tashkilotining IV sessiyasida so'zlagan nutqlarida: "Biz jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlab, iqtisodiyotni yuksaltirishga va mintaqamizdagi bitmas-tuganmas boyliklarimizni xalqqa xizmat qildirishga asosiy e'tibor va kuch-g'ayratlarni qaratganimizni ta'kidlab o'tmoqchiman," — dedilar. Iqtisodiy mustaqillikka erishishning kaliti ham shundadir. Maqsad aniq bo'lsa, yo'l yaqin bo'ladi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlari va uni amalga oshirishning vositalari mamlakatni iqtisodiy qiyinchilikdan olib chiqadi va uni rivojlangan mamlakatlar qatoriga o'tkazadi. Bunda yurtboshimiz boshlagan yo'liing mohiyatini chuqur anglamoq, uyushmoq, intilmoq, ijodiy mehnat qilmog'imiz zarur. Shunda biz mustaqilligimizni iqtisodiy jihatdan mustahkamlagan bo'lamiz, farovon turmushga erishamiz.

Ammo iqtisodiyotdagi istiqloлга darhol erishib bo'lmaydi. Buning uchun vaqt va ishlab chiqarishni barqaror o'stirish talab qilinadi.

Xulosa qilsak, o'tgan ikki yil ichida istiqloл sari dadil qadam qo'yildi, mustaqillikning bir qator masalalari hal etildi, iqtisodni yangilashga kirishildi. Natijada 1992 yilda yalpi mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi 9,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, shu yilning birinchi yarim yilligida u 3,3 foiz bo'ldi. Xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish 1992 yilning birinchi yarmiga nisbatan 106, neft — 117, gaz — 104 foizni tashkil etdi. Ko'plab yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu muvaffaqiyatlarimizning barchasi xalq xo'jaligimizning barcha tarmoqlarida sodir bo'layotgan islohotlarning faolligi bilan bog'liq. Shuning uchun ham biz bozor iqtisodiga o'tish bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlarga peshma-pesh baho berib borishimiz, shu islohotlarning ta'minotda, xalq turmushini yaxshilashdagi dastlabki natijalarni hisob-kitob qilib borishimiz, aholi ehtiyojini qondirish, uni ish bilan ta'minlash — ishlab daromad topishi uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida olib borayotgan ishlarimizga javobgarlik bilan qarashimiz, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi dastlabki tajribalardan xulosa chiqarishimiz, shular asosida milliy iqtisodiyotni qaror toptirishning bundan keyingi rejalarini ishlab chiqmog'imiz kerak.

O'ZLIGIMIZ TAMOYILLARI

Dunyoda shunday tarixiy shaxslar o'tganki, islohotlar ular nomlari bilan atalgan, chunki ular faoliyati iqtisodiyotda muhim yangi bosqichni boshlab bergan. Ruzveltning "Yangi kursi", Erxard "Islohoti", Marshall "Rejasi", "Reyganomika", "Tetcherizm" kabilar buning isboti bo'la oladi. Shu o'rinda O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarni "I. Karimov islohotlari" deb atasak xato bo'lmaydi, chunki aytilgan islohotlarning kontseptual asoslari va asosiy yo'nalishlari shu kishining mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga bag'ishlangan risolalari, nutq va chiqishlarida bayon etilgan. Islohotning o'zi ham I. A. Karimov rahbarligida amalga oshirilmoqda. Shu sababli yurtboshi olg'a surgan 5 printsip jahon jamoatchiligi diqqatini jalb etgani bejiz emas, albatta.

1. Prezidentimiz olg'a surgan "Ichki iqtisodiy strategiya har qanday mafkura ta'siridan butunlay xoli bo'lishi kerak", — degan qoida ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta e'tiborga loyiq. Mazkur qoida iqtisodni jamiyat hayoti uchun birlamchiligidan kelib chiqqan. Darhaqiqat, iqtisodiy ta'limot tarixidagi ko'pgina allomalar va davrimizning ulkan olimlari iqtisodiy faoliyat iste'mol ne'matlarini yaratish va ularni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, har qanday jamiyat uchun birlamchi bo'lishini qayd etishgan. Mana shu g'oya jumhurrais tomonidan yanada rivojlantiriladi. Bu g'oya ahamiyatini faqat O'zbekiston bilan cheklash noto'g'ri, u umuminsoniy mazmun kasb etadi. Uni hozirgi vaziyat bilan sharhlash ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki iqtisodning birlamchiligi ham hozirgi, ham kelajak avlod uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Buyuk kelajak sari borish uchun hozirdanoq uning poydevori — tamal toshini qo'yish zarur, bu esa iqtisodni o'nglash va rivojlantirish demakdir. Rivojlangan mamlakatga aylanish uchun O'zbekiston o'z iqtisodini avval barqarorlashtirishi, so'ngra uni o'stirib borishi kerak bo'ladi. Xalqning qornini to'ydiradigan, ustini but qiladigan, unga boshpana beradigan, uning kelajagini bamaylixotir qiladigan kuch bu iqtisodiy faoliyatdir. Xalq boyligini har doim yaratuvchanlik faoliyati oshirgan. Siyosiy muxoliflik, to'qnashuv va to's-to'polon hech qachon moddiy manfaat keltirmagan, aksincha u xo'jalikni vayron qilgan, uni izidan chiqarib xalq farovonligiga putur etkazgan. Buni anglash uchun Tojikistondagi qonli to'qnashuvlar qancha iqtisodiy zarar keltirgani yoki Kavkazdagi o'zaro kurash iqtisodni ayanchli ahvolga tushirib, xalqqa misli ko'rilmagan qimmatchilik va qahatchilik keltirganiga nazar tashlashning o'zi kifoya. Agar biz ahil bo'lib, millat, el-yurt, vatan manfaati yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilsak, bu koni foyda keltiradi. Biz mustaqillikka erishdik, agar uni iqtisodiy jihatdan ta'minlamasak, yana qaytadan o'zgalar asoratiga tushib qolishimiz mumkin. Rivojlangan iqtisod yo'q joyda siyosiy mustaqillik ham zaif bo'ladi. Zamonaviy iqtisodga ega bo'lish xalqaro miqyosda obro'-e'tiborga loyiq bo'lish demakdir. Agar AQSh va Yaponiya iqtisodiy pahlavon bo'lishmaganda xalqaro miqyosda hozirgidek yuksak martabaga ega bo'la olmas edilar, bu turgan gap. Shu haqiqatni unutib bo'lmaydi.

Iqtisodning o'z qonun-qoidalari, sir-asrorlari borki, ular bilan hisoblashmaslikning hech bir iloji yo'q. Ular bizning erkimiz, xohishimizdan qat'i nazar o'z kuchini namoyish etaveradi. Iqtisodiy o'sishni investitsiyaga, narxni talab va taklifga, mehnat unumdorligini texnika-texnologiya va ishlovchi malakasiga bog'liq ekani kabi qonun-qoidalarni hech kim, hech qachon bekor qila olmaydi. Har doim iqtisod o'z yo'lida boraveradi, uni to'xtatish mumkin emas, bunga hech bir davlat arbobi ham qodir emas. Odamlar aytilgan qonun-qoidalarni bajo keltirganlaridagina farovon yashashi mumkin. Kimki iqtisod qonunlarini nazar-pisand qilmasa, uning kosasi oqarmaydi. Iqtisodni xarob qiladigan narsa uni siyosiy kurashga bog'lab qo'yishdir. Prezidentimizning iqtisod mafkuradan xoli bo'lmog'i kerak, degan fikri juda o'rinli va o'ta dolzarbdir. O'tmishda biz iqtisodni mafkura dumiga aylantirib, o'z non-nasibamizni qiydik, kam rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin oldik. Totalitar iqtisodiy tizim kommunistik mafkura uchun xizmat qildi. Iqtisodiy muammolar echimini sinfiy-partiyaviy g'oyalar nuqtai nazaridan qarab kelindi. Mafkura iqtisod boshidagi oyboltaga aylanib qoldi. Iqtisodga mafkuraviy yondoshish azoblarini tortayapmiz, hozirgi tanglik o'z-o'zidan paydo bo'lmasdan, uni bizga o'ta mafkuralashgan iqtisodiy tizim meros qoldirdi. Bu merosdan qutulib el boyligini oshirish uchun iqtisod qonunlariga amal qilishga yo'l ochib berish zarur. Ammo buning uchun har bir kishi, kim va qanday mansabda bo'lishidan

qat'i nazar, aytilgan qonunlarni, birinchidan, chuqur anglashi, ikkinchidan, o'z xatti-harakatlarini qonunlar talabiga moslashtirishi kerak, qisqasi iqtisodiy zaruratga qarab ish tutishi zarur bo'ladi.

2. I. Karimovning risolalari, nutqlari va chiqishlarida iqtisodni boshqarishda davlat mavqeini ta'minlashga urg'u beriladi, bu bejiz emas, albatta, chunki boshqa mamlakatlar tajribasi bozor iqtisodiga o'tish kezarida davlatning iqtisodiy rolini zaiflashtirish zarar keltirishini yaqqol ko'rsatadi. U kishining davlat "asosiy islohotchi bo'lmog'i zarur, u eng muhim sohalarni belgilab berishi, islohotlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar va konservatorlarning qarshiligini engishi lozim" degan fikri o'ta ahamiyatlidir. Bu mulohaza hozirgi bosqichda bozor iqtisodiga o'tishning xususiyatlarini tahlil etish va chuqur anglashdan kelib chiqadi. Gap shundaki, sobiq sotsialistik davlatlar totalitar iqtisodiy tizimdan bozor tizimiga o'tishmoqda. G'arb mamlakatlari bozor tizimiga asrlar osha sekin rivojlanish orqali, an'anaviy iqtisodni o'zgartirish yo'li bilan o'tishgan. Mustaqillikni qo'lga kiritgan Sharq mamlakatlari boshqa vaziyatda bozor munosabatlariga kirishadilar. Ular dunyoda to'plangan tajribaga tayanib bozor iqtisodiga nisbatan qisqa davrda o'tadilar, ular uchun G'arbdagi bozor iqtisodi rivojiga xos bo'lgan hamma bosqichlardan o'tishlari shart emas, ular to'g'ridan-to'g'ri tsivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiga o'tishlari mumkin. O'zbekiston ham shunday imkoniyatlarga ega. Tsivilizatsiyalashgan bozor iqtisodi — bu insonparvar, sotsial mo'ljalga ega, tartiblanib turuvchi, barqaror o'sib boruvchi iqtisoddir. Unga faqat davlatga tayanib o'tish mumkin. Agar shunday iqtisodning shakllanishi o'ziga tashlab qo'yilsa, bu g'oyat uzoq davom etadi, xalqning keng miqyosda qashshoqlanishi bosqichidan o'tishga to'g'ri keladi. Bozor iqtisodiga azob-uqubatsiz o'tishni davlat ta'minlashi mumkin. Yangi iqtisod tadbirkorlik erkinligini bildiradi, binobarin, davlat iqtisoddan begonalashib, faqat siyosat bilan mashg'ul bo'ladi deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri. Bozor iqtisodi gullab-yashnagan mamlakatlarda ham davlat zaif kuch emas, balki faol kuchdir. Iqtisodni boshqarish tizginlarini davlat qo'lida tutish zarurligi quyidagilardan kelib chiqadi:

1) O'zbekistonda davlat asosiy mulkdor, faqat davlat o'z mulkini o'zgalar tasarrufiga berishi, turli-tuman mulkchilik shakllarini yaratishi mumkin;

2) Bozor iqtisodiga o'tilgan taqdirda ham davlat kamida 30—35 foiz mulkning egasi bo'lib qoladi, chunki faqat davlat ixtiyoridagina samarali rivojlanishi mumkin bo'lgan sohalar mavjud. Masalan, suv xo'jaligi, aloqa, yo'l xo'jaligi va h. k.

3) Ayrim shaxs yoki jamoaning o'z manfaati bor, ular umummilliy manfaatni himoya qila olmaydilar. Milliy iqtisodni davlatgina o'z panohida asrashi mumkin;

4) Bozor iqtisodining nuqsonlari borki, faqat davlat ularni bartaraf etadi, yoki salbiy oqibatlarini susaytira oladi;

5) Hozirgi bozor iqtisodi bu tartiblanuvchi iqtisoddir. Uni tartibga tushirishda davlat faol qatnashadi. Davlat o'z qo'lidagi iqtisodiy vositalar (soliq, kredit, boj puli, subsidiya, subvensiya, narx nazorati) orqali millionlab tadbirkorlar ishini qovushtiradi, uni yo'nalishda borishga ko'maklashadi. Davlat iqtisodni nazorat qiluvchi, uning bo'g'inlarini bog'lovchi kuch bo'ladi.

Davlatning faolligi uning monopoliyasini aslo bildirmaydi. Davlat antimonopol siyosat yurgizib, erkin raqobatga yo'l beradi. Masalaning yana bir muhim jihati borki, O'zbekiston 70 yildan ziyod o'ta davlatlashtirilgan iqtisod sharoitida rivojlandi. Iqtisodni boshqarishning shunday davlat mexanizmi (vosita va usullari) tashkil topdiki, uni birdan yo'qotilsa, bozor mexanizmi paydo bo'lib ulgurmagan sharoitda xo'jalik og'ir ahvolga tushib qolishi mumkin. Boshqarish mexanizmi yo'q joyda iqtisodiy falokat yuz beradi. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli davlat boshqarish tizginini birdan emas, balki sekin-asta qo'yib yuborishi kerak bo'ladi.

Hozirgi iqtisod — umumlashgan iqtisod, uni faqat davlat yo'li bilan isloh etish mumkin, chunki u minglab bir-biriga uzviy bog'lanib munosabat yurituvchi korxonalaridan iboratki, ularning boshini hozirgi davlat qovushtirib turadi. Har xil darajada u qabul etgan qonunlarni ishlab chiqishda keng jamoatchilik bilan hamkorlikda qatnashadi. Shu qonunlar asosida va davlat rahbarligida islohotni amalga oshirish mumkin. Bizning davlatimiz Prezident rahbarligida o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat iqtisod rivojida zaruratni, har bir shaxs, jamoa, hudud va umummilliy manfaatlar uyg'unlashuvini hisobga oladi. Uning ta'sirchanligi va kuchi ilmiy asosli bo'lishida va O'zbekistonning xususiyatlarini hisobga olib amaliyotdan naflari chora-tadbirlarni ko'zda tutishdadir. Xalq manfaatini davlat tomonidan hisobga olinishi O'zbekistonda hokimiyat manbai xalq ekanligini bildiradi.

3. Jumhurrais Islom Karimov o'zlarining "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay" risolalarida o'z dasturining uchinchi bandi sifatida hammaning qonunga itoatkor bo'lishi, qonunning hamma narsadan ustun turishini sharhlab o'tadilar. Albatta, bu huquqiy masala, lekin uni iqtisodga bevosita aloqasi bor. Gap shundaki, Oliy Kengash qabul qilgan ko'pgina iqtisodga tegishli qonunlar borki, ular iqtisodiy o'sishga qaratilgan. Rivojlangan iqtisod demokratik davlatning, fuqarolar jamoasining poydevoridir. Biz demokratik jamiyat sari borar ekanmiz, u erda qonun ustuvorligi mavjudligini unutmay, hozirdanoq qonunlarga rioya etishni o'rganish kerak. Qonun oldida hamma teng, uni buzishga hech kim haqli emas. Ammo amaliyotda eskichasiga qonunlarni nazar-pisand qilmay, ularni aylanib o'tishga intilishlar bor. Ayniqsa, buni soliq to'g'risidagi qonunlar ijrosida ko'rish mumkin. Qonun yo'li bilan xususiy mulkka ruxsat berildi, ammo ayrim mulkdorlar o'z huquqini ro'kach qilib, majburiyatlarini esdan chiqaradilar. Qonunlar barcha mulk shakllari tengligini taqozo etadi, lekin amaliy ishlarda nodavlat mulkini siqishtirish ham uchrab turadi. Bizningcha, hozir qonunlar ijrosini ta'minlovchi mexanizm ustida faol ishlasak, Prezidentimiz dasturini amalga oshirishga hissa qo'shamiz. Prezident davlatni xalq nomidan boshqaradi. Uning dasturi asosida xalq manfaati yotishini unutib bo'lmaydi.

4. Prezident dasturining sotsial siyosat o'tkazishdek muhim jihati mavjud. Bu u kishining oldinni ko'ra bilishidan dalolat beradi. SSSR, KPSS Siyosiy byurosi bor vaqtdayoq, I. Karimov O'zbekiston aholisining deyarli yarmi kambag'al qatlamga mansub ekanligini ochiq-oydin, qo'rqmasdan ayta oldi va ularni sotsial himoya qilish zarurligini qayd qildi. O'sha vaqtdayoq u kishi tashabbusi bilan aholini sotsial himoyalash yuzasidan komissiyalar tuzilganligi yodimizda turibdi. Prezident sotsial adolat jonbozi, kambag'alparvar zot desak xato bo'lmaydi. U kishi dasturida nochor kishilarni davlat va jamoatchilik himoyasiga olish insonparvarlik davlat siyosatining negizida turishidan dalolat beradi. Bu masalani faqat bozor iqtisodiga o'tish bilan bog'lash etarli emas, chunki bozor haqida gap bo'lmagan vaqtda ham unga I. Karimov e'tiborini jalb etgan edi. Ko'p sonli kishilarning kambag'al bo'lishi totalitar iqtisodiy tuzumdan qolgan meros edi. Sotsial masalaning jiddiylashuvini oldindan idrok etib, uni bartaraf etish chora-tadbirlarini qo'llash Prezident siyosatining istiqbolga qaratilganligidan darak beradi. O'zbekistonning xususiyatlarini nazarda tutib, "Karaxt qilib davolash" deb atalgan usul — ommaviy qashshoqlashish orqali bozor iqtisodiga o'tish, ya'ni iqtisodni jonlashtirishning Polshada sinab ko'rilgan islohot usuli inkor etildi. Bu usulning qo'llanilishi o'zi kambag'al bo'lgan kishilarni o'ta qashshoqlantirishi mumkin edi. Prezident bu usul bizga qo'l kelmasligani ochiq va dadil aytdi. Biz tanlagan yo'lning o'ziga xosligi ham shundaki, faqat aholi nochor qatlamlarini sotsial himoya qilish orqaligina bozor munosabatlariga o'tiladi. Gap shundaki, bozor iqtisodi turmushimizni farovon qilishda bir vosita bo'lishi kerak. Agar u ommaviy qashshoqlanishga

olib kelsa, bunday iqtisodning hech kimga keragi yo'q. Tajriba ko'rsatganidek, iqtisodi hali baquvvat bo'lmagan mamlakatlarda sotsial qafolatni jamoalar ta'minlay olmaydi, ayniqsa ular ishlamaydigan kishilarni himoya qila olmaydilar. Shu sababli bizning davlat mazkur aholi toifasini o'z himoyasiga oladi. Davlat kafolatga olgani uchun Toshkentdagi talabalar stipendiyasi Moskvadagi o'rtacha stipendiyadan 2—2,5 marta ortiq. O'zbekistonda tinchlik, osoyishtalik hukmron, sotsial to'qnashuvlar, ommaviy tartibsizliklar yo'q, bunga boshqalar havas qiladi. Bu albatta adolatli,

insonparvar, sotsial siyosatning mevasidir.

Endilikda O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida yangi bosqich — tub o'zgarishlar davri boshlanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari hamda Rossiyada yuz berayotgan voqealar mamlakatimiz aholisini ijtimoiy himoyalash masalasiga yanada jiddiyroq yondashishni taqozo etmoqda. Birinchi galda mehnat taqsimotini aholining mehnatga bo'lgan qiziqishidan va manfaatdorligidan kelib chiqqan holda amalga oshirish talab qilinadi. Masalan, I. A. Karimov aytganlaridek, O'zbekiston qishloq xo'jaligida 6,5 milliondan ko'proq mehnatga yaroqli kishi ishlaydi. Shulardan bemalol uch-uch yarim million kishini xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etish mumkin. Boshqa sohalarda ham ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish hisobiga mehnatchilar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni amalga oshirish oqibatida aholining ishga yaroqli bo'lgan barcha qismini ijtimoiy mehnatga jalb qilish, ish bilan ta'minlangan ishsizlarni faollik dunyosiga olib kirish, ko'pchilikni boqimandalik psixologiyasidan qutqarish kerak bo'ladi.

Bugungi kunda davlat byudjeti daromad qismining 40 foizi aholiga dotatsiya sifatida qaytarilmoqda. Prezidentimiz aytganlaridek, davlatimiz aholining ehtiyojmand qismini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishidan hamma, hatto boy badavlat kishilar ham babbaravar foydalanmoqdalar. Aslida esa, biz endi narx-navoni nazorat qilish o'rniga uni asta-sekin erkin qo'yib yuborib, mablag'ni maqtablar, bolalar bog'chalari, dam olish joylarini qurish kabi maqsadlarga, aholining faqat ehtiyojmand tabaqalarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishga sarflashimiz zarur. "Kelgusida biz sekin-sekin erkin narx belgilanishiga o'tamiz, — dedi I. Karimov, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash masalalariga bag'ishlangan kengashda. — Bunda har bir ehtiyojmand oilaga kommunal xizmat haqini to'lash, tovarlar sotib olish uchun dotatsiya beriladi. Aholini ijtimoiy himoyalash bundan so'ng ham davom ettiriladi. Biroq bozor munosabatlari bu masalaga jiddiy o'zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida narxni iste'molchining talabi va ishlab chiqaruvchining taklifi belgilaydi. Ma'muriy buyruqbozlik va noz-ne'matlarni yuqoridan taqsimlash tizimi hammani qashshoq va teng qilishga olib borishini yaqin 75 yillik tariximiz isbotladi", — dedi Prezident o'z nutqida.

Erkin narx-navo, mehnat qilish uchun qulay ijtimoiy huquqiy sharoitning yaratilishi aholiga turmush darajasini ko'tarish uchun talay imkoniyatlarni ochib beradi. Fuqaroning yashash manbai faqat korxonadagi ishigina bo'lib qolmasdan, yana kamida ikki-uch xil faoliyat unga qo'shimcha daromad keltirishi kerak. Iqtisodiy ehtiyojmand aholiga ham ma'qul bo'lgan ish o'rinlarini uyushtirish, ularning hayotini qiziqarli va barakali qilishga imkon bergan bo'lar edi. Hali bizda xizmat ko'rsatish sohasi ochilmagan qo'riq. Mehnatga layoqatlilar orasida nisbat 80 : 20 bo'lmog'i, ya'ni har bir moddiy ne'matlarni yaratuvchiga to'rtta xizmat ko'rsatuvchi to'g'ri kelmog'i lozim. Bu nisbatga aholining yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qismlari kirmaydi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday sharoitda Prezidentimiz ichki siyosatining markaziy yo'nalishidir. Bu yo'nalish Respublikaning har bir taraqqiyot bosqichida yangi mazmun, mohiyat bilan boyib boraveradi. Bunda iqtisodiy taraqqiyot, mavjudlik qonunlari ustuvorlik rolini o'ynaydi va bu savobli ishga nafaqat mehnatga yaroqli, balki nafaqa-xo'rlarning ham katta qismi tortiladi. Yurtboshimizning el bilan bamaslahat qarorlari va fikrlari xalqimizning ko'pchilik qismida ro'yxushlik va minnatdorchilik kayfiyatini barqaror kayfiyatga aylantirmoqda.

5. I. Karimov bir necha bor islohot o'tkazishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, uni ehtiyotlik bilan sekin-asta o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur ko'rsatma ham chuqur mulohazalar natijasidir. Darhaqiqat, o'ylamay-netmay, tasmollab turib hech bir iqtisodiy muammoni echib bo'lmaydi, ayniqsa, iqtisodiy islohotdek mas'ul ishni bajarib bo'lmaydi.

Shuni aytish kifoyaki, islohot biz uchun mutlaqo yangi iqtisodiy tizimni, bozor tizimini yaratishi kerak. Yangilik hech qachon birdan paydo bo'lmaydi. Har doim yangi iqtisodga bosqichma-bosqich borilgan. Bozor iqtisodi ham shu qoidadan xoli emas, albatta. Yangini

yaratmasdan eskini buzish yaxshilikka olib kelmaydi. Masalan, bozor aloqalarini o'rniga qo'ymay turib, planli xo'jalik aloqalarini uzib yuborish hozirgi MDH mamlakatlaridagi chuqur tanglikning bosh sababchisi bo'ladi. Shundan saboq olish foydali.

Islohot negizida yaratuvchanlik, ijodkorlik yotadi. Agar shoshmashosharlikka yo'l qo'yilsa, bunyodkorlikka erishilmaydi. Yana shuni unutmashlik kerakki, totalitar planli iqtisod bilan erkin bozor iqtisodi o'rtasida hech bir umumiylik yo'q, ular zid iqtisodiy tizimdir. Ular bir-birining bag'rida hosil bo'lmaydi.

Totalitar iqtisodning bozor iqtisodiga aylanishi bosqichma-bosqich boradi. Albatta, jumhuriyatning bozor munosabatlariga kirib borishi o'z-o'zidan, osonlikcha kechmaydi. Chunki, bizda bozor munosabatlariga o'tishga xalaqit beruvchi bir necha omillar bor.

Shulardan eng muhimi — "buyuk sotsializm sharofati" bilan hammaning ko'r-ko'rona tengligi to'grisidagi afsonaviy bir fikrdir. Bunga ko'ra, mulk xilma-xilligi, bozor munosabatlari xalqni albatta kapitalizmga olib keladi, natijada boy — boyga, kambag'al — kambag'alga ajraladi. Shuning uchun yomon bo'lsa ham, kambag'al yashasak ham, shu eski tartiblar bizni qoniqtiradi, hech qanday bozor munosabatlari bizlarga kerak emas, degan konservativ fikrdir. Ikkinchisi esa, yana shu sotsializmdan meros bo'lib qolgani iqtisodiy munosabatlarni markazdan buyruqlar asosida boshqarishdir. Bularni bartaraf qilish uzoq davrni o'z ichiga oladi. Lekin bunga dadil, ommaviy kirishib, xalqimizni iqtisodiy savodsizlikdan olib chiqishimiz, ularni oddiy ijrochilardan usta, o'z-o'zini boshqaradigan ishbilarmonlarga aylantirmogimiz kerak.

Bozor iqtisodiga o'tish uchun zamin hozirlab borish zarur. Buning uchun avval iqtisodga oid, bozor iqtisodini yaratishni ko'zlagan yuridik qonunlar qabul etilishi, bozorga xizmat qiluvchi tashkilot va idoralar (kommertsiya banklari, birjalar, savdo uylari, konsalting, innovatsiya, investitsiya, marketing, auditor firmalari, auksionerlar, yaxshi ishlaydigan transport va aloqa kommunikatsiyasi) yuzaga kelishi shart. Eng muhimi bozor iqtisodiga xos milliy tizim shakllanishi shart. Mulknii davlat tasarrufidan chiqarib, uni xususiylashtirish zarur bo'ladi. Xilma-xil mulkchilik va turli xo'jalik yuritish usullari joriy etilmasa, bozor iqtisodiga xos raqobatchilik tizimi paydo bo'lmaydi.

Ha, bozor munosabatlarining o'z mantiqi bor. Kim kuchli, aqlli, tadbirkor, savodli, hunarmand, cho'rtkesar, mehnatsevar, tavakkalchi, to'g'ri bo'lsa, u yaxshi yashaydi, boyiydi. Kim tambal, ishyoqmas, hunarsiz va ilmsiz bo'lsa, u albatta qashshoq yashashga majbur. Bozor har bir insonning o'z taqdirini o'zi belgilashi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bu o'quv-tarbiya ishlarimizning ko'p jihatlari qayta ko'rib chiqishimizni talab qiladi. Bolalarni yoshligidan tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, erkinlikka o'rgatmog'imiz kerak, xalqni uzoq vaqt qiynab kelgan "o'zbeklarning qo'lidan hech narsa kelmaydi", degan "tafakkur" sirtmog'idan olib chiqmog'imiz, jumhuriyatimiz fuqarolarini Yaponiya, AQSh, Germaniya fuqarolari singari bilimdon va ishchan fuqarolar darajasiga olib chiqmog'imiz kerak.

Bozor munosabatlariga o'tish kompleks tayyorgarlikni talab qiladi. Shulardan eng muhimi bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarur ekanligini anglash, unga o'tishning murakkab ekanligiga bu jarayon bir qator iqtisodiy-ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishga bizlarni majbur etishligini tushunishdir. Bunda jumhuriyatimiz o'ziga xos yo'l bilan bozor iqtisodiyotiga o'tish bu jarayonning sobiq ittifoq mustaqil respublikalari bilan ma'lum darajada bog'liq ekanligini, oxirgining ijobiy, ayni vaqtda salbiy xarakterga ega ekanligini ham nazarda tutmog'imiz kerak. Mana, masalan, shu yilning 16 yanvaridan boshlab jumhuriyatda narxlarni erkinlashtirishga o'tdik. Aslida narxlar erkinlashishidan ko'ra biz uning ko'tarilishini kuzatmoqdamiz. Har holda xalqimiz turmushning muhim jihati bo'lgan narx olamida jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. Xo'sh, bu o'zgarish faqat jumhuriyat rahbariyati xohishi yoki u iqtisodiy hayotning taqozosi bilangina sodir bo'ldimi, yo'q. Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa respublikalarda narx-navoning erkinlashtirilishi jumhuriyat iqtisodini chetlab o'tishi mumkinmi? Yo'q.

Agar jumhuriyat oziq-ovqat va kiyim-kechaklarning 60 foizini, neft mahsulotlarining 90 foizini, texnika va texnologiyaga aloqador mahsulotlarning kattagina qismini chetdan olib kelsa, ularning narxi foiz hisobiga emas, besh yuz, ming, hatto undan ham ko'p marta ortib ketgan bo'lsa, jumhuriyatdagi ilgari narxni ushlab turish mumkinmi? Albatta, yo'q.

Erkin narx-navoga o'tish bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim elementi ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Odatda narx-navo erkinligi, mulkchilik xilma-xilligi erkin ishlab chiqarish raqobatining mahsuli bulmog'i kerak. Bugungi erkin narx-navo moddiy nematlarni erkin ishlab chiqarish bilan bog'lanmagan holda, to'g'rirog'i tashqi iqtisodiy muhitning aktiv ta'siri ostida amalga oshadi.

Bu holat nazarimda hammamizni hushyorlikka, javobgarlikni jiddiy his qilishga, iqtisodiy, siyosiy hayotni aktiv va sinchkovlik bilan tahlil qilishga, ertangi kunni — to'g'rirog'i, oqibatni hisobga olgan holda qadam qo'yishga o'rgatmog'i kerak. Bozor munosabatlari faqat tavakkalchilikni emas, balki jiddiy hisob-kitobni, tahlilni, voqealarni oldindan ko'ra bilishni, halollik, mardlik, qonunga qattiq amal qilishni ham taqozo qiladi.

Ob'ektiv, sub'ektiv faktorlar hisobiga vujudga kelayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar jumhuriyatdagi barcha imkoniyatlarni inventarizatsiya qilishni, ulardan foydalanishning barcha vositalarini keng ko'lamda ishga solishni talab qiladi. Shulardan biri jumhuriyatdagi ishchi kuchidan effektiv foydalanish, ishsizlikning oldini olishdir. Iqtisodchilarimiz hisob-kitoblariga qaraganda, jumhuriyatimizda ishsizlar soni ko'paydi. Bunga yo'l bermaslik uchun, mening nazarimda, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va korxonalarni xususiylashtirish, turli-tuman mulk shakllarini qaror toptirishni tezlashtirish va kengaytirish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda katta-kichik korxonalarni vujudga keltirishni yanada ko'paytirish, erkin zonalarini barpo etish, chet el kapitalining katta miqdorda kirib kelishini ta'minlash lozim. Bundan tashqari jumhuriyat iqtisodiy taraqqiyoti yo'nalishlarini vaqtida oldindan to'g'ri aniqlab olish va shunga mos holda ishchi kuchlarini tayyorlab berish va ularning erkin taqsimlanishiga sharoit yaratish ham bu masalani oqilona hal qilishga ko'maklashadi. Bugungi kunda ishchi kuchlariga talab va taklifni uyushtiruvchi tashkilotlar alohida-alohida mavjuddir. Endi tezlik bilan ishchi kuchlariga aloqador bo'lgan tashkilotlar, korxonalarni zamonaviy kompyuterlar yordamida bir-biri bilan bog'lashimiz, ular faoliyatining samaradorligini oshirmog'imiz kerak.

Jumhuriyatimiz boy zaminga ega. Uning eri oltin bilan barobar. Nazarimda masala shu oltin erni avvalaylab, asrab ishlatishdadir. Biz turg'unlik yillarida qo'riq — bo'z erlarni ayovsiz o'zlashtirganligimiz bilan maqtanib yurdik. Shular hisobiga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, hosildorlik yildan-yilga oshib bormoqda, deb gerdaydik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hatto bugun ham kechagi singari ko'pchilik xo'jalik rahbarlari iqtisodiy masalalarga eskichasiga — ekstensiv tafakkur bilan yondoshmoqdalar. Biz erdan intensiv foydalanishga, har bir qarich srning hosildorligini oshirishga ko'chmas ekanmiz, har bir qarich erni abadiy o'z egasiga bermas ekanmiz, unda ishlayotgan mehnatkashning quloyog'ini erkin qo'ymas ekanmiz — xalqimizning qornini ham to'ydira olmaymiz, badavlat ham qila olmaymiz.

Umuman, jumhuriyat qishloq xo'jaligining bozor munosabatlariga kirish sharoitidagi istiqbollari ko'pchilikni tashvishga solayotganligi tabiiy hol, albatta. Masalani hal qilish bo'yicha ayrimlar zudlik bilan kolxoz va sovxozlarni tugatib, ularning erlarini va boshqa moddiy boyliklarni dehqonlarga berishni va hatto sotib yuborishni taklif qilsa, ayrimlar, buning radikal aksi bo'lgan variantlarni taklif qilishmoqda. Mening nazarimda, masalaga dialektik yondoshish uni jumhuriyat qishloqlari aholisining ahvolini, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining taraqqiyot darajasini, uning bundan keyingi rivojlanishiga sarf qilish mumkin bo'lgan sarmoyaning hajmini hamda xohlaymizmi-yo'qmi, xo'jaligimizning bundan keyingi istiqbolini belgilaydigan bozor munosabatlari mexanizmlarini hisobga olgan holdagina hal qilish

mumkin, xolos. Chunki shoshma-shosharlik bilan kolxoz-kooperativ va davlat mulkini birdan tugatish o'rinsiz bo'lib, katta zarar keltirishi mumkin.

O'tish davrida kolxoz-kooperativ, davlat mulki iqtisodiy mustaqillik uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Uning fermerlarga va boshqa shu turdagi xo'jaliklarga har jihatdan yordami kattadir. Kelajakda uning asosida dehqonlar, davlat xo'jaligi ishchilarining assotsiatsiyalari, o'z hissalariga ega bo'lgan mulkdor dehqonlarning yangi tipdagi umumiy xo'jaliklari paydo bo'lar. Bular iqtisodiy gipotezalar, albatta. Bugun sanoqli yillar ichida O'zbekiston dehqonchiligini tubdan o'zgartirish, uning samaradorligini ko'tarish haqida bosh qotirishimiz kerak.

Shu o'rinda qishloq aholisini ish bilan ta'minlash orqali ularning turmush darajasini ko'tarish haqida ham ayrim fikrlarni bayon qilmoqchimiz. Jumladan, birinchisi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini hatto jumhuriyatdagi yirik shaharlarga ham tashib o'tirmasdan, ishlab chiqarilgan hududning o'zida qayta ishlashni yo'lga qo'yishimiz kerak. Buning uchun xususiy kichik korxonalarni, chet el firmalari bilan qo'shma korxonalarni qurishga zudlik bilan kirishish zarur. Ularni tez o'zgaruvchan soliqlar orqali rag'batlantirish katta foyda beradi. Ikkinchidan, qishloq xo'jalik ishining mavsumiyligini hisobga olib, ekin-tikinlar yig'ishtirib olingandan keyin uni joylarda qayta ishlash bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlarni vujudga keltirish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, azaldan qishloq ahlimiz o'z hunarlari bilan — do'ppisi, choyshabi, etik-maxsisi, pichog'i, kulolchiligi, duradgorligi bilan mashhur bo'lgan xalq. Xalqning bu amaliy faoliyatiga bozor ruhini berish qishloq aholisi orasida ishsizlikni ancha kamaytiradi. To'rtinchidan, biz tezroq shaharlarimizdagi turar joyga ko'ra ro'yxatga olish (propiska) masalasini hal qilishimiz kerak. Jumhuriyat ichidagi migratsiyaning kuchayishiga huquqiy sharoitni kengaytirishimiz zarur.

Bugungi kunda bir toifa odamlarning cheksiz boyib ketishi, boshqa toifadagilarning esa kambag'allashishiga qarshi ichki bozorni himoya qilish, xalqni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'rilmoqda. Bu chora-tadbirlarning hammasi aholining, birinchidan, bozor munosabatlariga o'tishlarida o'zlarini o'nqlab olishlari uchun, ikkinchidan esa, eng muhimi, bozor munosabatlariga ularning aktiv kirib borishlari uchun yaratilgan shart-sharoitdir. "Yotib eganga tog' chidamas" — deydi dono xalqimiz. Aholi qanday shart-sharoitda yashamasin, agar u qaysi bir darajada ishlab chiqarishda ishtirok etmasa, uni uzoq vaqt hech kim ochlik va muhtojlikdan saqlay olmaydi. Chet el sadaqasiga, yordamiga umidvor bo'lib, unga ko'z tikib stish, tayyor narsalarnigina pullab kun kechirishga moslashish halokatning alomatidir.

Bozor iqtisodi ko'pchilik o'ylaganicha oddiy bir narsa emas, u murakkab va ko'p qirrali iqtisod, uning belgilarini birin-ketin shakllantirish mumkin. Bozor iqtisodiga o'tishni sun'iy ravishda sharoitni hisobga olmay jadallashtirish ham, unga o'tishni paysalga solib, orqaga surish ham o'rinsizdir. Bizning buyuk kelajagimiz bozor iqtisodiga o'tish bilan bog'liq. Bas shunday ekan, sharoit etilishiga qarab bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich va izchillik bilan o'tib borishimiz turgan gap.

BARQARORLIKNING SIRI

Ulug'lar hamisha yurtiga tinchlik-xotirjamlik tilab duo qilishgan. Chunki yurtning osoyishtaligi, uning boyligi, yuksalish manbai, mamlakatlararo obro'-e'tibor garovi tinchlik ekanligini ular yaxshi bilishgan. Yaratganga ming-ming shukurlarkim, respublikamizda ulug'lar tilagan tinchlik-xotirjamlik, mustaqillikni mustahkamlashga safarbar qilingan yaratuvchanlik hukumron.

Bu holatning siri, ochig'i, nafaqat xorijlik siyosatchilarni, jurnalistlarni hatto o'zimizni ham qiziqtiradi. Butun boshliq sotsialistik sistemaning emirilishi, SSSRdek buyuk davlatning chok-chokidan ketishi, qator mustaqil davlatlarning vujudga kelishi va o'z yo'llarini topib rivojlanishi, ko'rib turibmizki, hamma erda tinch va osoyishta sodir bo'layotgani yo'q.

Ayni vaqtda bunday yirik, olamshumul tarixiy jarayon ayrim davlatlarda tinch o'tishi mumkin ekanligini ham tarix ko'rsatmoqda. Bunda mazkur davlat xalqining ijtimoiy tabiati, undagi siyosiy munosabatlarning yo'nalishi, muhimi, siyosiy yo'l boshchining etukligi, uning irodasi va xarakteri, omilkorligi va ishbilarmonligi, jasorati va sa'yi-harakatlari, umummaqсад birligining xalq tomonidan anglanishi kabilar muhim rol o'ynaydi.

Respublikamizdagi osoyishtalik, hamjihatlikning sirini men yurtboshimizning shoshmasdan, izchil, maqsadga muvofiq, donolik va jasorat bilan olib borayotgan siyosatida ko'raman.

Bugungi kunda respublika ahli xalq tanlagan Prezidentimiz siyomosida istiqlol, tinchlik va osoyishtalik ramzini ko'rib, unga yuksak ishonch bildirgan. Bu siyosiy holatni men xalq Prezidentini, Prezident ayni vaqtda xalqni topdi deb ifodalagim keladi.

Xalqning prezidentni topishida Islom Abdug'anievichning shaxsiy sifati, uning xalq bergan vakolatga sadoqat va mas'uliyat bilan qarashi, o'z kelajagi, mahoratini xalqning istiqboli, tinchligi, osoyishtaligi, farovonligiga bag'ishlashi muhim ahamiyatga egadir. Siyosatshunoslar siyosiy rahbarlarni egotsentrik (hayot men va mening shuhratim uchun), alterotsentrik (hayot mening qarindoshlarim, yaqinlarim uchun) va sotsiotsentrik (hayot xalqim, uning baxtli turmushi uchun) kabi tiplarga bo'ladilar. Men u kishini fuqaro, iqtisodchi, siyosatchi, yurtboshi sifatida yaxshi bilganligim uchun Islom akani siyosiy rahbarlarning sotsiotsentrik tipiga kiritaman.

Prezidentimiz xalqni topishini esa necha ming yillar osha o'ziga xos geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy muhitning barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga bek xalqimning ijtimoiy tabiatida ko'raman.

O'zbek xalqining o'ziga xos tabiati tarixning shonli va qonli sahifalarining yig'indisi sifatida shakllandi. U tarixdan xulosalar chiqarib tarix yaratdi, o'zini jahonga, jahonni esa o'ziga tanitdi. Shu jarayonda uning o'ziga bekligi tobora toblanib bordi. Tadqiqotlar o'zbeklarning azaldan tinchlik-sevar xalq bo'lganligini, urushqoqlik, jangarilik xalqimizning tabiatidan yiroq ekanligini tasdiqlaydi, lekin ayni vaqtda unga tegsa, uni notinch qilsa, u holda nafaqat uning yigitlari, hatto ayollari ham er bo'lib ketganligini qayd qiladi.

Qo'shni, o'zga xalqlarni qadrlash, ularda o'ziga do'stini va og'asini ko'rish uchun butun borlig'ini in'om qilishga tayyor turish O'zbekistonliklarga xos fazilatdir.

O'zbeklar tabiatan bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan xalq. "Davlat — og'iz birligida" deydi dono xalqimiz. Ya'ni kishilar bir-birini to'g'ri tushunsalar, bir yoqadan bosh chiqazib, ittifoq bo'lsalar boylik, muvaffaqiyat, omad ularning qo'lida bo'ladi.

Bundan tashqari nazarimda xalqimizdek kuyunchak, bir-biriga beg'araz yordam qo'lini cho'zadigan, birovning dardiga malham bo'lishga shoshiladigan xalq olamda bo'lmasa kerak.

Kuyunchaklik, mehr-muruvvat bor joyda bir-birini tushunish bor. Bir-birlarini tushunish ayii vaqtda birlikning, osoyishtalikning garovidir.

Osoyishtalikning bosh garovi xalqning o'z siyosiy rahbariga ishonishidadir. Xalqning bu tarixiy sifati necha-necha sinovlardan o'tish jarayonida uning turmush tarziga aylanib qolgan. Albatta, tarixiy taraqqiyot tasodiflarsiz sodir bo'lmaydi. Unda ma'lum aldanishlar, adolatsizlik, razolat ham bo'lgan. Lekin ko'pchilik holda xalq ishongan yurtboshilar xalq yuzini erga qaratmagan, ularning ko'pchiligi elning ori, nomusi yo'lida fidoiy xizmat qilganlar. Buni biz dovyurak va dono yurtboshimiz I. A. Karimov timsolida ko'ramiz.

Xalqning suyuqli rahbariga aylanmoq uchun yurtboshi o'z xalqini sevmog'i, e'zozlamog'i, asramog'i, unga sig'inmog'i zarur. Shunda xalq unga yuragining to'ridan joy beradi. Nonko'r, so'qir "siyosatchilar", "desantchilar" tomonidan toptalgan, oyoq osti qilingan o'zbek xalqining or-nomusini, milliy qadriyatlarini, o'zbekning o'zbek degan ulug' nomini qayta tiklashda Islom akaning ko'rsatgan fidoyiligini xalqimiz yaxshi biladi.

Ma'lumki, XX asrning 80-yillari xalqimiz tarixiga o'zbek millati ustidan qo'zg'atilgan soxta jinoiy ish tufayli dahshatli tuhmat va qabohat yillari sifatida kirdi. Sobiq markazning "siyosiy ishbilarmonlari" tomonidan boshqa respublikalarga ko'rsatib qo'yish uchun "o'zbeklar ishi" uyushtirildi. Bunda butun boshliq bir millat "yoppasiga" jinoyatchilikda ayblandi, gunohsiz, o'z mehnati, turmushi bilan el og'ziga tushgan, millatimizning faxri bo'lgan ne-ne vatandoshlarimiz avval qamoqqa olindi, keyin esa ular ustidan jinoyat bo'htoni to'qildi. Tuhmat, fitna, zo'rlashning eng so'nggi usullaridan foydalangan "desantchilar" begunoh kishilarni soxta "ayb"larini tan olishga majbur qildilar. Gazeta, radio, televidenie orqali vatandoshlarimiz obro'sini istagancha to'kish ular uchun hech gap emas edi. Insonning xo'rlanishidan kulish, uning vijdonini balchiqqa bulg'ash, otani bola oldida, davlat rahbarini el oldida, olimni shogird oldida xo'rlash singari qabohat "ko'riklarini" uyushtirdilar. Bolani otadan, xotinni eridan ajratib sarson-sargardon qildilar. Millatning aqli va faxri bo'lgan ziyolilarni siyosiy bo'g'izlash yo'llarini, yo'q qilinishi kerak bo'lgan o'zbeklar ro'yxatini tuzib chiqdilar. Tiriklar qamoqxonalarda qiynalgan bo'lsa, marhumlar badnom qilindi, ruhi chirqiradi.

"O'zbeklar ishi" nafaqat xorijda, hatto o'zimizda ham gipotetik xarakterdagi ijtimoiy fikrni shakllantira boshladi. Ayrim guruhlar bir-birlariga, do'st-birodarlariga, qarindosh-urug'lariga, boy va qadimiy tarixiyu-madaniyatiga, o'zligiga, borlig'ini xalqiga bag'ishlagan sof, halol rahbarlari shaxsiga ham shubha bilan qaray boshladi. Mazkur kayfiyat kishilarning ayrim guruhida ma'lum ishonchga ham aylana boshladi. Shu tufayli ular "o'zbeklar ishi" kompaniyasining xizmatiga ham o'tib ketdilar. Natijada xalqning o'ziga bo'lgan munosabatida ma'lum parokandalik, esankirash holati paydo bo'ldi.

Mamalakatda bunday siyosiy-ijtimoiy vaziyat qalqib turgan bir sharoitda har qanday rahbar ham toptalgan ulusining ori deb o'zining shaxsini qalqon qilavermasligini tarixdan bilamiz. Ammo shunday tarixiy vazifani Islom Abdug'anievich ado etdi.

O'zbek xalqining sadoqatli farzandlarining tarixiy nomlari, obro'lari tiqlandi.

Bu o'rinda Respublikamizning iqtisodiy va siyosiy qudratini tiklash va ko'tarishda katta xizmatlar qilgan Sh. R. Rashidovning pok nomi tiklanishi shu davr qurbonlari ori, nomusi tiklanishining ramziy yakuni bo'ldi. Sh. Rashidovga qo'yilgan haykal esa 80-yillarda qatag'on qilingan kishilar xotirasiga qo'yilgan haykal bo'lib qoldi.

Bunday olijanob ishlar xalqimizning ruhini ko'tardi, unda adolatning qaror topishiga ishonch hissiyatini uyg'otdi. Xalq o'ziga, ertangi kuniga umid, ishonch bilan qaray boshladi. Bu esa o'z navbatida xalqni uyushtira oladigan, yangilaydigan, har qanday qiyin vazifalarni hal qilishga safarbar qila oladigan nihoyatda katta moddiylashgan siyosiy kuchdir.

Mamlakatdagi osoyishtalik Prezidentimiz O'zbekiston zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir millatning manfaati, huquqini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlarini, an'alarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan inson parvar va vatanparvar milliy siyosatining natijasidir.

Yurtboshimizning: "Biz yaxshi anglaymizki, o'z izzati va qadrini bilgan inson millat ajratmaydi. O'z kuchi va kelajagiga ishongan xalqning bag'ri keng bo'ladi," — degan so'zlari g'oyat ibratlidir.

Xudoga ming qatla shukurki, o'zbeklarning boshqa xalqlarga munosabati yaxshi. Yurtimizda yashayotgan boshqa xalq vakillariga odilona qarash, ularga mehribonlik qilish biz uchun ma'naviy burchga aylangan.

"Istiqlolga erishgan xalq o'zgalarga zug'um qilmaydi. Ma'lumki, tazyiq va tahqir tuyg'usi alamzadalik uyg'otadi. Biz esa tazyiq va tahqirdan qutulgan, o'z qadrini bilgan xalqmiz. O'z kuchiga ishongan va o'zgalarga hamdard bo'la olishga qodir erkin xalqmiz" — Prezidentimiz aytgan bu so'zlar respublikadagi totuv millatlararo munosabatni qaror toptirishning siyosiy va nazariy asosidir.

Bugun O'zbekistondagi millatlararo hamkorlik ruhi bir respublika doirasidan chiqib, iliq bag'riga bir necha mamlakatlarni olmoqda. Prezidentimiz asos solgan kelajagi porloq Markaziy Osiyo respublikalari hamjihatligi barpo bo'ldi. Mazkr hamjihatlik bugun Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Bekorga xalq: "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" — demagan. Birlilik, osoyishtalikning mehriyosi shunchalik kuchliki, u masofani, chegarani bilmaydi. Do'stona hamkorlik davlatlarni farovonlikka olib keladi, bir-birining moddiy, madaniy jihatdan boyishini ta'minlaydi, xalqaro obro'sini oshiradi. Mana kuni kecha navro'z tantanalari munosabati bilan tarixda birinchi marta AQSh Prezidenti Respublikamizni muborakbod etdi. Bu endigina ikki bahorni ko'rgan mustaqil Respublikamizning jahon hamjihatligi shohsupasida munosib o'rin olganligining yorqin dalilidir.

Mamlakat osoyishtaligining muhim zaminlaridan biri Islom akaning respublika taraqqiyoti yo'llarini aniq belgilab berishidadir. Davlatning kelajagini, bu kelajakka erishish yo'llarini yaxshi tasavvur qila olgan, bilgan, mustahkam irodali rahnamogina uni munavvar maqsadga etkaza oladi. Prezidentimiz bizlarni aniq maqsad sari boshlar ekan, xalq bu savobli va saxovatli ishda u kishiga hamisha madadkoridir.

Mamlakatdagi siyosiy barqarorlikning muhim sabablaridan yana biri, aholini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan kuchli darajada himoya qilishga qaratilgan hayotiy siyosatdir. I. A. Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida: "Davlat o'z aholisini himoya qila olgandagina insonparvar hisoblanadi. Davlat kishilarga, ayniqsa, yordamga muhtoj bo'lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, etimlar, bolalar, o'quvchilar, nafaqaxo'rlar va nogironlar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishi kerak", — deb yozadilar. Aholi uchun non, oziq-ovqat mahsulotlari bugungi kunda iqtisodiy tovarlar emas, balki siyosiy, ijtimoiy tovarlar okanligini yurtboshi qayta-qayta aytdilar. Aholining bu mahsulotlarga bo'lgan talabini har qanday qiyinchilikka qaramasdan etarli darajada qondirish hukumatning birinchi darajali vazifasi bo'lib qoldi. Natijada aholini iqtisodiy himoyalash respublikamizda bugun shunchaki siyosat emas, balki real hayotga aylandi. Iqtisodiy yordamga muhtoj bo'lganlarning, umuman aholining turmushi bugungi kunda MDH davlatlari orasida yuqori darajalardan birini egallaydi. Respublikada aholining turmush darajasini ko'tarishning barcha yo'nalishlarini yanada mukammallashtirish ustida ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda eng kam oylik miqdori 11250 so'mni, o'rtacha pensiya miqdori 18100 so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Rossiyada — 4275; 8122, Qozog'istonda — 4500; 5000, Qirg'izistonda (rublga chaqqanda) — 3200; 3200, Tojikistonda — 2000; 2000. Rossiyada eng kam oylik maosh miqdori bilan eng yuqori oylik maosh o'rtasidagi farq 22 barobardir.

Yurtboshimizning aholini ijtimoiy himoyalashdagi mehribonliklari aholining turli qatlamlari o'rtasida shukronalik uyg'otmoqda. "Men 23 yildan beri O'zbekistonda yashayman, — deb yozadi Zarafshondan E. T. Morozova, — O'zbekistonda yashayotganligimdan baxtiyorman. Mening yaqin qarindoshlarim Rossiya, Qozog'iston, Ukraina va Qirg'izistonda yashaydi. Ularning hal bo'lmagan hayotiy muammolari shu qadar ko'pki, ba'zilari nihoyatda qashshoq yashaydi. Men ertangi kunimdan xotirjamman. Ikkita o'g'limni o'zim voyaga etkazdim. Ular ochlik nima, yalang'ochlik nima ekanligini bilishmagan. Bularning hammasi uchun Sizga, Islom Abdug'anisvich, rahmat. Olib borayotgan dono siyosatingiz uchun katta rahmat. Uzoq yillar sog' bo'ling. Sizning sihat-salamatligingiz faqat Sizgagina emas, balki O'zbekistonda yashayotgan barcha xalqlarga kerak".

Iqtisodning siyosatdan, har qanday mafkuradan ozod bo'lishi odamlarning o'z qobiliyatlarini namoyish qilishlari uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Ularning o'zlariga bo'lgan ishonchi tobora mustahkamlanmoqda. Erkin mehnat, yaratish raqobati odamlar orasida bekorchi gapga o'rin qoldirmayapti. Aholi yaratish bilan band ekan, demak, uning hayoti tinch, osoyishtadir. E'tiqodi osoyishtalik bo'lgan Bahouddin Naqshband aytganlaridek, "dil 6a yoru dast ba kor", — ya'ni "dil yor (xudo) bilan, qo'l ish bilan band bo'lsin". Ana shunda mustaqillikka farovonlik, farovonlikka osoyishtalik, osoyishtalikka imon kirib keladi.

Albatta, aholining ma'lum bir qismida bozor munosabatlarining mevalari bo'lib ko'rinayotgan "sotib ol — sot" qabilida g'ayriqonuniy amallashtirish natijasida davlat xazinasiga bir miri ham tushirmay boyib borayotgan ustasi faranglar faoliyati norozilik kayfiyatini tug'dirmoqda.

Xalq Prezidentning iqtisodiy siyosatini shuning uchun ham qo'llab-quvvatlaydiki, unda respublika aholisining ko'pchilik ijtimoiy guruhlarining manfaati aks etgan. Davlatimiz rahbarining ichki siyosati asosida xalq manfaatini bilish, uni tushunish va siyosatni undan keltirib chiqarish, umumdavlat manfaatini xalq manfaatiga muvofiqlashtirish yotadi. Ayni vaqtda xalq bilan hukumatning bir-birini tushunishi mamlakat osoyishtaligining muhim garoviga aylanib qoldi.

Mamlakatdagi bunday ijtimoiy muhit o'z o'rnida hukumat uchun maqsadga muvofiq bo'lgan rejali iqtisodiy yangilashlarni amalga oshirish uchun qulay imkoniyatni yaratdi. O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy bozor munosabatlariga o'tish yo'li uning nafaqat bugungi kuni balki uzoq kelajagi uchun ham oqilona tanlangan yo'ldir.

Xalqning osoyishta turmushini qaror toptirish uchun uyushgan jinoyatchilikka, odam o'ldirish, nomusga tajovuz qilish, bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik, davlat va jamoat mulkini talon-toroj qilish, fuqarolar mulkini o'g'irlash kabilarga qarshi Prezidentimiz boshlagan adolatli va xayrli ish butun xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Elda bugun ertangi osoyishta kunga, demokratik huquqiy davlatning qaror topishiga, qonun oldida hammaning bir xil javobgar bo'lishi mumkin ekanligiga ishonch paydo bo'ldi. Bu kayfiyat respublika aholisi orasida tartib-intizomni anglanilgan holda qaror toptirish uchun kurash imkoniyatini tug'dirdi. Haqiqatda ham, tartib-intizomni, adolatni, aholining himoyalanshini qaror toptirmasdan turib, iqtisodiy islohotni ham amalga oshirish, kelajagi buyuk davlatni ham vujudga keltirish mumkin emas. Bu o'rinda muhimi, jumhurrasimizning xalq dardini o'z vaqtida sezganligi va unga malham bo'lib, omilkor usullarni belgilab berganliklaridadir. Zo'ravonlikdan zada bo'lgan xalq Prezidentning omilkor tadbirini ma'qullab, uning nomini xutbaga qo'shib o'qimoqda. Demak, Prezidentimizning xalq osoyishtaligi uchun olib borayotgan komil siyosatlari xalqning yuragiga etib bormoqda.

Siyosiy osoyishtalikning yana bir muhim omili Respublikada ijtimoiy-siyosiy hayotning izchil va peshma-pesh demokratlashishidir. Bugun bu holatga turli kishilar turli nazar bilan qarab turlicha xulosalar chiqarmoqdalar. Islom Abdug'anievich "Komsomolskaya pravda" gazetasining muxbiri savollariga bergan javoblarida: "Muxoliflarim meni diktator qilib ko'rsatishni juda xohlaydilar, tan olaman, ehtimol mening harakatlarimda avtoritarizm nishonalari bordir. Ammo men buni faqat bir narsa bilan izohlayman, tarixning muayyan davrlarida huquqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda, ayniqsa, bir tizimdan ikkinchisiga o'tish davrida harholda kuchli ijroiya hokimiyati zurrur. Ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya sari harakat qilish uchun shunday bo'lishi kerak", — dedilar.

Men jurnalistlarning Islom Abdug'anievichga bergan O'zbekistonda demokratik jarayonlarning holati bilan bog'liq bo'lgan savollarini ikki xil tushunaman. Albatta, birinchidan, ularni yangi davlatdagi yangi siyosat qiziqtirishi tabiiy, ikkinchidan esa, mazkur savollarni berish ayrim jurnalistlar jahon jamoatchiligining diqqatini pashshadan yasalgan soxta filga tortishga harakat qilishlaridir.

Ular 200 yildan ortiqroq davr ichida demokratik printsipalar siyosatining qon-qoniga singib ketgan davlatlarning fuqarolari bo'lganliklari uchun ham, shuni yaxshi bilishlari kerak ediki, demokratik jamiyatda yashab turgan fuqarolar, shu jumladan muxolafat ham o'zlari yashayotgan jamiyatning taqdiri uchun mas'ul hisoblanadi. Muxoliflik faqat fikrlar, e'tiqodlarni erkin ifodalashgina emas, balki mamlakat osoyishtaligi, farovonligi oldida javob berish hamdir. Obro' e'tibori bor muxolif hokimiyatga nisbatan o'zini naqadar andishali tutsa, uning qadri shuncha ortadi yoki aksincha. Hokimiyat bilan muxolafatning murosasi Konstitutsiya normalaridan kelib chiqadi.

Agar muxolafat Konstitutsiya normalaridan tashqari chiqib, mavjud davlat tizimlarining faoliyatiga xalaqit bersa yoki tajovuz qilishga harakat qilsa, bunday sharoitda demokratiyaning muhim qurollaridan biri bo'lgan qonunchilik ular faoliyatini ma'lum ma'noda tartibga solib qo'yishi zurrur. Bu — mamlakat, el osoyishtaligi va farovonligining talabi. Prezidentimiz olib borayotgan siyosatni avtoritarizm yoki diktatorlik bilan bog'lab tushuntirishga urinayotganlar fikriga mutlaqo qo'shila olmayman. Chunki, juda ko'plab Janubiy Koreya, Gretsiya, Chili kabi mamlakatlarning o'tish davriga xos bo'lgan tarixiy saboqlari shuni ko'rsatadiki, bir ishlab chiqarish munosabatlari tizimidan ikkinchi xil ishlab chiqarish munosabatlari tizimiga o'tish buni qiyin va murakkab sharoitda amalga oshadi. Bunda mamlakatdagi barcha partiyalar, siyosiy harakatlar va kuchlar islohotni amalga oshiruvchi bo'lmasdan, balki faqat yakkayu-yagona

davlatgina islohotchi bo'lmog'i kerak.

Xalq o'z ishonch yorlig'ini bergan Prezident qonuniy ravishda davlat tizimining barcha strukturalari jilovini qo'lida mahkam ushlab, belgilangan strategiyaga ko'ra mamlakat taraqqiyotini ishonch bilan boshqarib bormog'i lozim. Bu ikki karra ikki to'rt kabi tarixiy haqiqatdir. Shu vajdan Islom Abdug'anievich olib borayotgan siyosatni kimlar qanday nom bilan atamoqchi bo'lishlaridan qat'i nazar xalqimiz, jahon jamoatchiligi ko'z oldida bitta haqiqat mavjud. Bu ham bo'lsa Respublikadagi osoyishtalik, xalq hayotining tobora farovonlashib, ko'rkamlashib borishi uchun qo'yilgan mustahkam zamindir.

"Chuqur va keng demokratiyaning" oqibatini boshqaruvning jilovini to'rt tomonga qo'yib yuborgan, yangi tetapoya bo'layotgan mustaqil davlatlar hayotida ko'rib turibmiz. Ming-minglab begunoh kishilar qoni daryo bo'lib oqayotganining, shaharlar va qishloqlarning vayron bo'layotganligining, vatangadolikda yurgan sonsiz qochoqlarning guvohi bo'lib turibmiz. Bundan shunday xulosa chiqadiki, xalq uchun, uning osoyishtaligi uchun har kungi mitingbozlik, namoyishbozlik, haqorat, kamsitish, sharm-hayosiz amal talashish demokratiyani yoki uni hamma tomondan muhofazalashga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilgan holda mamlakatni sobitqadamlik bilan uyg'unlashtirib qat'iy intizom, tartib bilan boshqarish demokratiyasi?

Ijtimoiy hayot tabiiy-tarixiy jarayondir. Har bir ijtimoiy hodisaning o'z vaqti-soati bor. Rivojlangan g'arb mamlakatlariga xos bo'lgan demokratik munosabatlarni mamlakatimizda bir yarim yil ichidayoq ko'rishni xohlaganlar uni albatta inson haq-huquqlari garmoniyasi qonuniyati talabiga mos darajada yaqin yillarda ko'radilar. Bunga davlatimizda baquvvat zamin qo'yilgan. Bu jarayon izmi bilan rivojlanib bormoqda. Uning rivojlanishi va istiqboli uchun ahillik, birdamlik, vatanparvarlik hamda osoyishtalik zarur. Demokratik printsiplar osoyishtalikka, osoyishtalik esa o'z navbatida demokratik printsiplarning chuqur ildiz otishiga xizmat qilmog'i lozim. Buni xorijlik jurnalistlar ham, o'zimizning muxolafat ham yaxshi tushunmog'i kerak.

Nuroni qariyalarimiz har doim: "Ilohim yurtimiz tinch bo'lsin, xalqimizning tani-joni sog' bo'lsin", — deb duo qilishadi. Olloh xolisona niyatlarimizni, pok maqsadli iltijolarimizni eshitib, bizni balo-qazolardan o'zi asramoqda. Bunga yurtimizdagi har bir mo'min-musulmon ishonch hosil qildi. Bu haq gap. Qachonki yurtboshi xalqni o'ylasa, xalq o'z yurtboshchisiga qarashsa Tangri ham ularga rahmat nazari bilan qaraydi. Hadisda aytilganidek, er yuzidagi ulamolar bamisoli osmondagi yulduzlar kabitdir. Erda ham, suvda ham ularga qarab yo'l topiladi. Yulduzlar bosta, yo'lichilar adashishi mumkin deyiladi. Yulduzning botishi ayni vaqtda yurtning, xalqning o'z yo'lidan adashishidan nishonadir. Yo'ldan adashgan xalq o'limga, zulmatga mahkum ztilgan xalqdir.

Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik tom ma'nodagi realist, qiyinchiliklarni yashirib o'tirmaydigan, ularni tan olishdan qo'rqmaydigan, mustaqil va jasur, o'z pozitsiyasidan chekinmaydigan optimist I. A. Karimov olib borayotgan tashqi siyosat bilan ham bog'liqdir.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish — davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir. Insonning uyi ham ichki, ham tashqi tomondan muhofazalangan bo'lishi kerak. Bu muhofazalar bir birini to'ldirmog'i lozim.

"Qo'shning tinch — sen tinch" degan xalq maqoli bor. Bizda osoyishta muhitni qaror toptirishda yurtboshimiz shu printsiptan kelib chiqdilar. Shuning uchun ham mustaqil Markaziy Osiyo respublikalari bilan do'stona, qardoshlik munosabatlarini mustahkamlash, ular bilan qalin ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish, ilmiy-madaniy hamkorlikni kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatini g'oyat muhim, ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Qo'shni Tojikistondagi noxushliklarni biz o'zimizdagi noxushlik deb bildik, Prezidentimiz uning oldini olish uchun birinchi bo'lib jahon jamoatchiligiga bong urdi. Tojikistondagi fuqaro urushining xatarli oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan BMT Bosh kotibi Butros G'oliy janoblariga murojaat qildilar, hamdo'stlik mamlakatlari rahbarlarini sezgirlikka chaqirdilar. Tojik xalqiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Tojik eriga ham osoyishtalik va mehnat kirib keldi. Bu bilan o'zimizning Vatanimizda ham osoyishtalikning muhim zamini yaratildi. El tinch uxlab turadigan bo'ldi. Hadisda ham aytilganidek, qaysi bir odam biror mo'min birodarining boshiga musibat tushib, obro' va hurmatiga putur etib turganida unga yordam qo'lini cho'zmasa, o'zining boshiga kulfat tushib, najot tilaganda Tangri ham unga yordam bermaydi. Agar, aksincha yordam qo'lini cho'zsa, Tangri ham uning hojatiga madadkor buladi, deb yozilgan.

O'zbekiston tashqi xavfsizligini qaror toptirish yo'lida eng katta xalqaro tashkilotlarga — Qo'shilmaslik harakatiga, Evropa xavfsizlik va hamkorlik Kengashiga, Xalqaro moliya muassasalariga a'zo bo'lib kirdi. Tashqi siyosiy faoliyatimizga suverenitetini hurmat qilish,

barqarorlikni va ichki ishlarga aralashmaslikni himoya qilish, atom qurolini va boshqa turdagi ommaviy qirg'in vositalarini taqiqlash va ommalashtirmaslik qoidalari asos qilib olingan.

Davlatimiz tashqi siyosatining asosiy maqsadi do'stlik va hamkorlik bo'lib qoldi. Bu maqsadni amalga oshirishda O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqligi va ko'p tomonlamaligi qo'l kelmoqda.

Yaqinda Shveysariyadagi "Forum fond" xalqaro iqtisodiy tashkiloti IV sessiyasida yurtboshimiz so'z olib: "Katta iqtisodiy zaxiraga ega bo'lgan va Evropa-Osiyo qitasida strategik jihatdan muhim jug'rofiy-siyosiy o'rinni egallab turgan respublikamiz o'zaro manfaatli hamkorlikka intilib, iqtisodiy salohiyatimizni uzluksiz rivojlantirishda, islohotlar o'tkazishda va iqtisodiyotning tizimini qayta qurishda davlatimizga ko'mak berilishi tarafdori bo'lib turibdi. Hozir bu erda sarmoya va olisni ko'zlab mablag' sarflash uchun hamma sharoit bor. Bu mablag' va sarmoyalar salmoqli samara berishi shubhasiz," — deb ochiq bayonot berdilar.

O'zbekistonning mustaqil strategiyasi chet el kapitalini katta miqdorda kirib kelishini talab qiladi. Kapitalning kirib kelishi ayrim o'rtoqlar hisoblaganidek mustaqillikka raxna solmaydi. Chunki har ikki tomonga ham manfaatli shartlar bilan xorijdagi mablag'larni jalb etish, O'zbekiston iqtisodiyotini o'stirishni ta'minlaydi, ko'plab yangi-yangi ish joylari ochiladi, yaratiladi.

Bizning ishchilarimiz, injenerlarimiz, iqtisodchilarimiz zamonaviy texnika va texnologiyadan foydalana bilishlari lozim. Bu ayni vaqtda o'quv-tarbiya ishlarimizni, bolalar bog'chalaridan oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan bo'g'inlarning hammasida tubdan yangilashni talab qiladi. Biz jahon raqobat bozoriga chiqar ekanmiz, shu erdagi raqobatga tayyor, shu raqobatda g'olib chiqishga qodir bo'lgan mehnatchilarga ega bo'lmog'imiz kerak. Buning uchun birinchi galda, shu bo'lajak mehnatchining o'zi o'z kasbidan manfaatdorligini anglashi, o'zini o'zi nazorat qilishi, o'zini o'zi safarbar qilishi, uyushtira bilishi lozim.

Do'stona hamkorlikning natijalarini ko'rib turibmiz. Bizning rostligimiz, ochiqligimiz ko'plab jahon mamlakatlarining nigohida turibdi. Ular bizda manfaatli hamkorini ko'rmoqda. Bas, shunday ekan, xalqaro miqyosda respublikamizga nisbatan xavf-xatar doirasining torayishi, uning hisobiga yaxshilik, bir-birini tushunish, qadrlashning kirib kelishi ortib boraveradi.

Bularning hammasi mamlakatimizdagi osoyishtalikning umrini boqiy qiladi. Yurtboshimizning xalqaro obro'lari yanada oshadi. Mamlakatdagi osoyishtalikning yana bir muhim sirini xalqning Prezident olib borayotgan siyosatni tushuinishida va baholashida ham deb bilamiz. Osoyishtalik qaror topishida davlat rahbarlarining maqsadi bilan xalq xohishining mos tushishi muhimdir.

Bunda yurtboshi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy pulsni ushlab turishi, ayni vaqtda aholining ijtimoiylashishi, siyosiy madaniyat darajasi, har bir farmon, qonundan xabardor bo'lishi va uni bilishi muhim rol o'ynaydi. Aholi bugun respublikada mustaqillikni mustahkamlash yo'lida kim, qaysi partiya, siyosiy harakat nima qilayotganligidan xabardor. Biz buni Prezident nomiga kelayotgan maktublardan, kundalik axborot vositalari orqali, aholi bilan bo'layotgan bevosita muloqotdan ham ko'rib turibmiz.

Lekin ochig'ini aytishimiz kerak. Biz ziyolilar mazkur masala bo'yicha hali xalqdan ham, Prezidentdan ham qazdormiz. Bu Islom Abdug'anisvichning bir guruh yozuvchilar bilan o'tkazgan tarixiy uchrashuvida ziyolilar oldiga qo'ygan vazifalaridan aniq-ravshan ko'rinib turibdi. Mamlakatda sodir bo'layotgan tarixiy o'zgarishlarni chuqur ilmiy tahlil va tadqiq qilishda, viloyatlarda, tumanlarda, xalq orasida respublikamizning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini, uning muammolari va istiqbollarini keng targ'ib qilishda kechikishlarga yo'l qo'ymoqdamiz. Shuni yaxshi bilmog'imiz kerakki, xalq, millat o'zining ziyolilarning fikri, asarlari orqali taniydi, boshqa millatlar bilan o'zini solishtiradi, o'ziga o'zi tashqaridan qaray oladi.

Shuning uchun mamlakatimizda osoyishtalikni barqaror qilish uchun ziyolilar o'zlarining butun iste'dodini, ilmini, bilimini, butun faoliyatini safarbar qilmog'i kerak. Aholi nechog'li bilimdon bo'lsa, u shunchalik o'zini davlat oldida mas'ul deb biladi. Uning siyosiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatdagi xilma-xil ziddiyatli kuchlarning bir-birini tushunishi bilan hal bo'ladi, xalq qanchalik faol va xolis niyatli bo'lsa, uning rahbari shunchalik muzaffar bo'ladi. Mamlakatda esa tinchlik, osoyishtalik va farovonlik qaror topaveradi.

YANGI MAFKURA YO'LIDA

O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy osoyishtalik — barqarorlikka yo'nalgan jarayon. Bu jarayonni yangi vositalar bilan mustahkamlash, yangi mazmun bilan boyitish bobida hurmatli Prezidentimiz bugungi kun uchun suv va havodek zarur bo'lgan g'oyalarni o'rta qo'yimoqdalar. Shulardan biri milliy istiqol mafkurasini yaratish g'oyasidir.

Jamiyat mafkura bilangina tirikdir. Agar jamiyat tana bo'lsa, mafkura uning ruhidir. Bu ruh uni uyushtiradi, ilhomlantiradi va orzu-havaslar sari etaklaydi. Gap ruhning sog'lomligi, pishiqligi va o'tkirligida.

Ulug' niyatlar va osoyishta turmush ana shunday ruhning otasi va onasidir. Yurtimiz mustaqil bo'ldi. Yaratganga ming shukrlar bo'lsinki, mana istiqolning ikkinchi yilini ham tinchlik va xotirjamlik, ertangi kunga ishonch ruhi bilan kutib olayapmiz. Bu Prezidentimiz aytganlaridek, mustaqilligimizni saqlab qolish, uni kelajak avlodlarga omon etkazish kerak ekanligini, mustaqillik non bilan choy emasligini, u avvalo, ma'naviy, ya'ni odamni odam qiladigan, millatni millat qiladigan tushuncha ekanligini, oldimizda faqat bitta yo'l, u ham bo'lsa o'zimizning mustaqilligimizni mustahkamlab, faqat olg'a yurishimizdangina iborat yo'l borligini odamlar ongiga singdirishni talab qiladi. Milliy istiqol mafkurasini ota-bobolarimiz yaratgan ulug' qadriyatlar zaminida, ayni vaqtda mazkur tuyg'ular esa xalqimizning oxir-oqibat maqsadi, istiqboli, idealga etishi uchun xizmat qilmog'i lozim.

Mustaqil O'zbekistonning oxir-oqibat ideali nima? Bu — I. A. Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqol va taraqqiyot yo'li" risolasida ko'rsatilganidek, ideal-huquqiy-demokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyat qurishdir.

Qonuniy demokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyat ham ijtimoiy-siyosiy, ham huquqiy-axloqiy, ham falsafiy-badiiy, ideal-istiqbol bo'lmog'i kerak. Mazkur ideallarning mazmuni, ularni tiklamoqning barcha vositalari, tizimlarining takomili qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyatni qaror toptirish jarayonini ifodalamoq va unga xizmat qilmog'i lozim.

Ma'lumki, Kommunistik mafkuraga ko'ra davlat kapitalizmdan kommunizmga o'tish davridagina xizmat qiluvchi, kommunistik printsiplarning qaror topishi jarayonida peshma-pesh o'lib borishi kerak bo'lgan siyosiy quroldir. Lekin bizning nazarimizda, mustaqillikni mustahkamlash — mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy ideali bo'lgan jamiyatda aksincha, davlatchilik shu darajada rivojlangan bo'ladiki, qonunchilik shu qadar mustahkamlanadiki, natijada davlat har bir fuqaroda, har bir fuqaro esa davlatda mavjud bo'ladi.

Qonunga itoat qilish, uni bajarish, unga bo'lgan hurmat respublika har bir fuqarosining kundalik hayot tarziga, refleksiga aylanib qoladi. Shuning uchun mafkuramizning birinchi jihatini ijtimoiy hayotda qonunning ustuvorligini ta'minlash tashkil qilmog'i kerak. Boy hajm va mazmunga ega bo'lgan rivojlanish va taraqqiyot mafkurasini o'z-o'zidan qaror topmaydi. Bunda qonunchilikni yanada kuchaytirish, ijtimoiy intizomni keng ko'lamda tezroq qaror toptirish va uni kundalik hayot intizomiga aylantirish muhim ahamiyatga egadir. El yaxshiligi, tinchligi, erkinligi uchun talab qilinadigan har qanday intizom choralari (ba'zan tartibbuzarlarga nisbatan zo'rlik ishlatish ham) o'zini oqlagan va idealga etishish uchun xizmat qilgan.

Rivojlanish va taraqqiyot mafkurasining muhim jihatini va asosini uning iqtisodiy nazariyasi tashkil etadi. Albatta, bu — ko'pchilik mutaxassislar hamkorligida, respublikamizning milliy, geografik-iqtisodiy xususiyatlarini, iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlarini hisobga olgan holda batafsil ko'rib chiqiladigan katta masala. Ayni vaqtda ishlashi kerak bo'lgan rivojlanish va taraqqiyot mafkurasining muhim jihatini, real xarakterini belgilab berishda iqtisodiy nazariyaning roli benihoya kattadir. Unda aholining iqtisodiy turmush darajasi, hayot tarzining sifat ko'rsatkichlari muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki O'zbekistonda mustaqillikka erishgunga qadar mulkning barcha ko'rinishi davlat ixtiyorida bo'lib, to'g'rirog'i, davlat yagona mulk egasi edi. Mafkura ham shu mulk munosabatlaridan kelib chiqqan holda unga xizmat qilar edi.

Bugun mamlakatimiz o'z boshidan o'tish davrini kechirmoqda. Mulkning asosiy qismi hozir ham davlat ixtiyoridadir. Lekin mulkchilikning xilma-xil shakllari asta-sekinlik bilan iqtisodiy munosabatlarga kirib kelmoqda.

Endi ijtimoiy-siyosiy idealga erishish uchun biz qanday iqtisodiy nazariyaga asoslanmogimiz kerak? Albatta, demokratik davlatda fuqaro qaysi bir shakl va hajmda bo'lmasin u mulk egaligiga aloqador bo'lmog'i, uning faoliyati va mavjudligi qonun bilan muhofaza qilinmog'i lozim. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda AQSh yoki Evropa mamlakatlariga xos bozor munosabatlarining qaror topishi mumkin emas. Uzoq yillar davomida

yoppasiga ijtimoiylashgan mulk hukmron bo'lgan mamlakatda yoppasiga xususiylikka aloqador bo'lgan mulkchilik qaror toptirishning imkoniyati ancha-muncha cheklangan. Shu boisdan mafkuramizning iqtisodiy asosini bizningcha, birinchidan, davlat va xususiylikka aloqador mulk shakllarining bab-baravar rivojlanishini ta'minlash, ikkinchidan esa, xususiylikka aloqador bo'lgan aakllarining ixtisoslashuvi, integratsiya va kooperatsiyasiga keng yo'l ochib berish, aholini mulkka nisbatan begonalashuviga to'liq barham berishga erishish, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti uchun keng imkoniyat yaratib beruvchi ishlab chiqarish munosabatlari dinamikasini qaror toptirish qonunlari tashkil qilmog'i lozim. Iqtisodiy nazariyani ishlab chiqishda, atbatta mustaqil Respublikamizning muammolari, shart-sharoitlaridan kelib chiqmoq kerak. Ayni vaqtda mamlakatimiz har bir iqtisodiy taraqqiyot boshichlarining muammolari va talablarining echimini umumiy ijtimoiy-siyosiy maqsadga bo'ysundirgan holda amalga oshirish kerak bo'ladi. Bizning nazarimizga ko'ra qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan jamiyatda hal qiluvchi vazifani davlat va mo'tadil kooperatsiya xarakteriga ega bo'lgan xususiy mulkchilikning ustunligi tashkil qilishi kerak. Mulchilikning bu ikki sohasida mehnat qilayotganlar ongaga vatan boyligi, qudratini ko'tarish, uning eri, suvi va havosi musaffoligini ta'minlash bobidagi javobgarlik hissiyoti, katta harf bilan yozilgan — Vatanparvarlik ona suti bilan kirmog'i lozim.

Mafkura-ijtimoiy-tarixiy hodisa. U ma'lum bir ijtimoiy guruh, sinf, millat, davlat, jamiyat manfaatini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, badiiy va diniy g'oya, qarashlar tizimidir. O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasi vatanimiz o'z yo'lining besh qoidasiga, vatanparvarlik va insonparvarlik dunyoqarashiga asoslangan, qonuniy-demokratik davlatchilik negizida adolat jamiyatini qaror toptirishda elni jipslashtiruvchi, uyushtiruvchi nazariy vosita va ma'naviy omildir.

Mustaqil O'zbekistonda birorta sinf, ijtimoiy guruh emas, balki xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai va egasidir. Unda davlat hokimiyati xalq manfaatini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi. Jamiyatning biron bir siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

Respublika Konstitutsiyasining bu qaydlari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Demak, O'zbekistonda sotsializmdagidek jamiyatda yagona bir ishchilar sinfi va uning siyosiy aqli bo'lgan bolsheviklar partiyasi mafkurasi emas, balki millatidan, ijtimoiy guruhga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, jami fuqarolarni o'zida mujassamlashtirgan O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini ifodalaydigan bir mafkura umumdavlat mafkurasi bo'lmog'i lozim.

Demak, davlatimiz mafkurasi bittagina sinf, ijtimoiy guruh yoki millatning manfaatiga xizmat qilmaydi. Bizda bir millat, partiya, sinf mafkurasi hukmron mafkura bo'la olmaydi. Respublika mafkurasi umummilliy mafkurasi bo'lib qoladi.

Albatta, ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratiyalashuvi jarayonida turli ijtimoiy guruh va qarashlarning manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiyalar, tashkilotlar bor va yana yangilari vujudga kelmoqda. Ular ma'lum mafkuraga asoslangan o'z siyosiy dasturini ishlab chiqadilar. Masala ana shu xilma-xillikka ega bo'lgan siyosiy partiyalarning mafkuraviy platformalari yagona davlat mafkurasi konsensusiga olib kelishi va O'zbekistonda qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan adolat jamiyatini barpo qilishda, undan keng foydalanishdadir.

Yagona davlat mafkurasining asosini Vatanga mehr tashkil qiladi. Vatan uy, ko'cha, shahar, qishloq, daryo, tog' kabilarning jamidan iborat bo'lgan geografik yoki matematik tushuncha emas. Balki u ana shu uyni uy qilgan ota-ona, opa-singil, ko'chani ko'cha, mahallani mahalla qilgan qadrdon insonlar, ularning shu uyga, ko'chaga, mahallaga bo'lgan mehr-oqibati, ularning bir-birlarini qadrlashlaridan boshlanadigan tabiiy-ijtimoiy tushunchadir. Uning mazmuni, mohiyati, qadri, Vatanni bilish jarayonida kengayib, chuqurlashib, ortib boraveradi.

Mafkurada muhim o'rinni milliy iftixor egallaydi. Milliy iftixor va vatanparvarlik bir-birini to'ldiruvchi qadriyatlaridir. Vatanparvarlikda o'zi tug'ilib o'sgan va ajdodlar kindik qoni to'kilgan o'lkaga bo'lgan mehr-oqibat ifodalansa, milliy iftixorda shu o'lkani o'lka qilgan, uning qadriyatlarini bunyod etgan xalqqa ta'zim, o'zini shu elning bir qismi, deb g'urur bilan his etish ifodalanadi.

Bizning milliy istiqloq mafkuramiz jumladan, har ikkala qadriyatlarining shakllanishi uchun xizmat qilmog'i lozim. Chunki ular davlatimiz barcha fuqarolarini ulug' maqsad yo'lida yurakdan birlashtirish vazifasini ado etadi,

Mana, Prezidentimiz yozuvchilar bilan bo'lgan uchrashuvda: "Biz mahalliychilikka, guruhbozlikka chek qo'yishimiz zarur. Bunday narsalarni oramizdan ko'tarib tashlash kerak. Bu ishimizga xalaqit beradi. Dunyoda o'zbek millati bitta. U xorazmlikmi, farg'onalikmi, surxondaryolikmi farqi yo'q — o'zbekdir", — deb kuyunib gapirdilar.

Milliy ietiqloqni mustahkamlashning muhim to'siqlaridan biri ana shu mahalliychilikdir. Bu feodal er egaligi, hokimligi, qaramligi, manfaatidan meros qolgan psixologiya. Buni harakatga keltiruvchi narsa, albatta, iqtisodiy-siyosiy manfaatlardir. Bundan maqsad biron amalni egallab olish, uni saqlab qolish, mol-dunyo orttirishdir. Bu ijtimoiy g'ovni iqtisodiy yo'l bilan, fuqarolarning iqtisodiy manfaatdorligini xilma-xil vositalar orqali kengaytirish, bozor munosabatlarining keng imkoniyatlaridan foydalanish va ijtimoiy, siyosiy yo'llar bilan olib tashlash mumkin. Millatda umumiy iqtisodiy manfaatdorlik psixologiyasi shakllanib, butun mamlakat doirasida yashayotgan barcha millat, elat vakillari bir tuyg'u, bir millat tuyg'usi bilan yashaydi. Bir millat tuyg'usi bilan yashash, degani respublikada yashayotgan barcha rus, qozoq, tatar, koreyslar va boshqa yuzdan ortiq xalq va etnografik gruppalar vakillarining o'zbek bo'lib qolishi degani emas. Mazkur jarayonda har bir xalq uzoq asrlar davomida o'zligini saqlab qoladi. Ularning til xilma-xilligi, urf-odat rang-barangligi saqlanib qoladi. Lekin ulardagi siyosiy tabiatga ega bo'lgan millatchilik tarixiy sahnadan ketadi. Umum iqtisodiy manfaat, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, uni yaratishga intilish, farovonlik umummilliy iftixor mazmunini kasb etadi. Ayni vaqtda turli millatlarga xos bo'lgan etnografik xilma-xillik turmushimizni rang-barang qiladi, hayot go'zalligining taftini oshiradi.

Milliy iftixor haqida gapirganda ayrim o'rtoqlar faqat o'zbek millati, uning o'z-o'zini bilishi, unga xos bo'lgan qadriyatlarni tiklash, ulug'lashga urg'u beradilar. Bu — to'g'ri. Bunga men ham qo'shilaman. Biz xalqimizning ko'hna tarixini mukammal o'rganishimiz va undan bugungi kun uchun zarur bo'lgan barcha saboqlarni olmog'imiz zarur. Xalqimizning azaliy an'analari, urf-odatlarini tiklamog'imiz, uni hozirgi zamon mazmuni bilan boyitmog'imiz zarur. Lekin bugun bizning oldimizda turgan bosh masala mustaqillikni mustahkamlash, taraqqiyotning eng qulay yo'lga tayanib, qisqa vaqt ichida jahonning eng ilg'or mamlakatlari qatoriga o'tib olishdir. Til ham, yozuv ham, imlo ham, atamalar ham, qadriyatlar, din ham shu maqsad uchun ishlamo'g'i kerak. Qaysi bir tildan kirib kelgan, qaysi bir davrda aholining juda tor qismi uchungina tushunarli bo'lgan atamalar bilan hozirgi zamon o'zbek tilini to'latish, uning belini sindirish, o'zligimizni bilish uchun qilinayotgan harakat emas. Aksincha, bu bizni progressdan chetlatish, o'rta asrlar qorong'uligi tomon etaklashdan boshqa hech narsa emas.

Vatanparvarlik tushunchasi, birinchi galda bizni o'zaro birlashtirib turgan xalq deb atalmish bitta umumiy kategoriyadan kelib chiqmog'i kerak. O'zbekiston ruslar, qozoqlar, koreyslar uchun ham "o'lsam ayrimayman quchoqlaringdan", deb ataluvchi ma'naviy qadriyat bo'lishi kerak. Uning sha'ni, obro'si, qadri-qimmatini unda yashayotgan har bir millat vakilining sha'ni, obro'si, qadri-qimmatini bo'lishi kerak.

Inson qadr-qimmatini bilan tirik. U qorni uchun yig'lamaydi, balki qadri uchun yig'laydi, dard chekadi. Respublikada yashaydigan har bir fuqaro shu mamlakat qadriining bir misqoli. Shu misqollarni ulug'lash orqali Vatanimiz qadri ulug'lanadi. Nazarimda, ana shu qarashlarni biz ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha bo'ladimi, aniq, mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha bo'ladimi, o'tiladigan darslar uchrashuv, suhbatlarda, turli ma'rifiy-madaniy ishlarimiz orqali yoshlarimiz ongiga singdirmog'imiz zarur. Bu mustaqillik mafkurasining etakchi jihatlari hisoblanadi deb o'ylayman.

Milliy istiqlol mafkurasining yana bir muhim jihatini oddiy insoniy qonunlarni o'zida mujassamlovchi axloqiy qadriyatlar tashkil etadi. Unda Vatanga mehr, milliy iftixorning ham tub mohiyati o'z ifodasini topadi. Istiqlol, taraqqiyot axloqi o'zida bir jihatdan o'zbek xalqining boy axloqiy xazinasining qaymog'ini ifodalasa, ikkinchi jihatdan, u XX asrga xos umuminsoniy axloqiy fikr, qarashlar yig'indisidan ham iborat bo'lmog'i kerak.

Albatta, biz uchun Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Naqshband axloqiy merosi benihoya qadri. Ammo ularni qanday bo'lsa shundayligacha hozirgi davr axloqiy munosabatlariga ko'chirib bo'lmaydi. Chunki xalqimiz yangi muhitda, yangi ijtimoiy munosabatlar sharoitida yangi niyatlar bilan yashamoqda. Biz xalqning shu kunga qadar saqlab, avaylab kelgan, zamonamiz ruhiga moslashib, hayotiydashib kelgan axloqiy norma, qarash va qadriyatlariga istiqlol ruhini berish haqida o'ylamo'g'imiz kerak.

Xalqimizning o'zligini tashkil qiladigan milliy axloq ham qotib qolgan axloq emas. Balki u yangi sifatlar bilan boyishi kerak bo'lgan, ayni vaqtda boshqa millat, xalq axloqiga oziq bo'ladigan va undan oziq oladigan axloqdir.

Milliy istiqlol, taraqqiyot axloqimizning menimcha bosh kategoriyalari mustaqillikni mustahkamlash, ahillik, vatanga mehr bo'lishi kerak. Mustaqillikni mustahkamlash — burch sifatida fuqarolarimiz faoliyatining axloqiy tarzi bo'lmog'i kerak. Mustaqillikni mustahkamlash uchun sen nima qilding, degan savol tashqaridan emas, balki ichkaridan, har bir kishining yuragidan uning o'ziga berilmog'i kerak. U shu fikr bilan yashamo'g'i kerak.

Prezidentimiz aytganlaridek, agar ahil bo'lsak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim eng olmaydi. Oramizda ertani o'ylamaydigan, shaxsiy manfaatlarini xalq, vatan manfaatlaridan yuqori qo'yadigan kimsalar bo'lmasligi uchun ziyolilar bizlarga ko'mak berishlari lozim. Toki bundaylar odamlar fikrini chalg'itmasin. Avvalo vijdon toza bo'lishi kerak. Bugun

hammamiz millatimiz, xalqimizning, davlatimizning kelajagi hal bo'layotgan nozik davrda yashayapmiz. Demak, har birimiz bu davrdagi axloqiy burchimizni yaxshi anglamog'imiz zarur. O'shanda axloqiy qadriyatning ta'sir kuchi yanada oshadi.

Mustaqillikni mustahkamlash tuyg'usi, ahillik tuyg'usi, vatanga mehr tuyg'usidan kelib chiqadi va katta harflar bilan yoziladigan axloqiy siyosatni — Vatanparvarlikni ifodalaydi.

Rasuli Akram sallallohu allayhi vassalam: "Hubbul vatan — minal iymon", ya'ni vatanni suymoq iymondandur, deganlar. Iymon insonning halolligini, inson ekanligining mezonidir. Iymonsiz kishi insonlar qatorida turmaydi. Xuddi shunday millatni birlashtirishga xalaqit beruvchilar, mustaqillikni mustahkamlashga qo'shilmaydiganlar vatandan ko'ra jig'ildonini, amalni afzal ko'radilar, ayni vaqtda vatanfurushlar va iymonsiz kimsalardir. Bularga nisbatan mafkura kuchi bilan, jamoatchilik fikri, nazari bilan beayov kurash olib bormog'imiz lozim.

Vatanga mehr — nihoyatda buyuk va nozik axloqiy fazilat. U har bir fuqarodan ijtimoiy hayotni sinchiklab o'rganmoqni, uni yaxshi va yomon tomonlaridan tegishli xulosalar chiqarmoqni talab qiladi. Vatanni bilish, qadrlash, salohiyatiga ega bo'lgan kishilargina vatanparvar kishilar bo'la oladilar.

Diqqatingizni Abdulloh Avloniyning "Guliston" yoki "Axloq" kitobida keltirilgan bir hikoyatga tortmoqchiman. Bir kuni bir ko'r Hazrati Luqmoni Hakimning oldiga kelib: "Agar ko'zimni ochsangiz men sizga ko'l bo'lurmen", dermish. Hakim ko'rni ma'rifat sohibi ekanligini bilib: Jonim, ko'zingning pardasini ochmoq mumkin, lekin nazari ibratni ochmoq qo'limdan kelmaydi", dermishlar. Ko'r: "Sizning shuhratingiz fahat parda ochmoqdan iborat bo'lsa, sizni Hakim demay tabib demoq kerak ekan", deb Hazrati Luqmonning ibrat ko'zini ochmishdir.

Ibrat ko'zi, ya'ni har narsadan yaxshi, ibratli, kerakli narsa, sifatni ajratib ola bilishlik axloqiy kamolotning muhim kalitidir. Mustaqillikni mustahkamlash, yurtni osoyishta qilish va uni nurafshon cho'qqilarga ko'tarish uchun elimizga ana shunday o'tkir zehinli ibrat ko'zi ochilgan kishilarni tarbiyalash mafkuraviy ishimizning muhim jihati bo'lmog'i lozim.

Mazkur jarayonning mohiyatini esa yana shu davlatdagi hamma uchun bo'lgan mafkura, undan kelib chiqadigan ta'lim va tarbiya ishlarining mazmuni tashkil etadi.

Vatanparvarlik, Vatanga mehrni shakllantirish, qaror toptirishda jamiyat, inson to'g'risidagi ilmni egallash, ularni rivojlantirish muhim o'rin egallaydi.

Respublika mustaqilligini mustahkamlashda, ma'naviy olamni barkamol qilishda gumanistik, ilmiy, hozirgi zamon dunyoqarashini shakllantirish, uning mazmunini boyitish muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson va uning ma'naviy borlig'i to'g'risidagi tasavvur, tushunchalar va qarashlarning umumlashgan sistemasidir. Uning asosiy belgilarini hodisalarda mohiyatni, shaklda mazmunni, alohidalikda umumiylikni ko'ra bilishda, ma'lum printsiplarga ko'ra bilimlarni, qarashlarni, normalarni guruhlay olish, sistemalashtira olish, mavjud ilmiy faktlarga asoslanib kelajakni bashorat qila bilishda ko'ramiz.

Bugun talabalarga ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida ana shu ilmiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Hukumatimiz ijtimoiy fanlarni o'qitishga alohida ahamiyat bermoqda. Bugun ijtimoiy fanlar mafkuraning vositaligidan qutildi. Undagi dogmatizmga chek qo'yildi, abstraktlikdan konkretlikka, mavhum ijtimoiylikdan insonning, jamiyatning aniq muammolarini bilishga o'tish boshlandi.

Bugun ijtimoiy fanlar xodimlari oldida katta ilmiy, nazariy va amaliy masalalar ko'ndalang turibdi. Bu muammolarni hal etmasdan turib, o'zligimizni tanishimiz, istiqlolimizni anglashimiz, iqtisodiy mustaqillikka erishishimiz, jahon bozorining raqobatdosh sub'ektiga aylanishimiz mumkin emas. Ona Vatan tarixini, xalqimizning tabarruk odobiyu, uning o'ziga xos iqtisodiy xarakteri, tafakkur xususiyatini bilmasdan vatanparvar mutaxassisning shakllanishi mushkul.

Xo'sh, muammolar nimalardan iborat? Birinchisi — ijtimoiy fanlarning hajmi jihatdan boshqa mutaxassislik fanlarni o'rtasida egallagan o'rni masalasi. Bu borada turli fikrlar mavjud. Bizningcha, muammoga ekstensiv nuqtainazardan emas, balki intensivlik nuqtai nazaridan qarash lozim. Shunda bugungi kunda ijtimoiy fanlarga ajratilgan soatlardan samarali foydalanish g'oyat muhimligi ravshanlashadi. Hozirdanoq talabaning o'z ustida ko'proq ishlashi uchun kerakli sharoitni tug'dirish, shaxsiy dunyoqarash garmoniyasini takomillashtirish uslubini ishlab chiqish zarurati anglashiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy fanlar ro'yxati zamonaviy fanlar bilan boyitilishi darkor. Chunki bozor munosabatlariga o'tish sharoitida "Kasb etikasi", "Ijtimoiy psixologiya" kabi fanlar fuqarolarimiz mutaxassislarimiz uchun benihoya zarur. Shu bilan birga, "Mantiq" fanini ham chuqur o'rganishimiz lozim. Inson zakovati mantiqni zaruriyat tarzida yaratgan-ku, axir!

Falsafani o'qitish bobida ham echilmagan savollar ko'p. Goho bu fanni o'rganishning o'zi kerakmi, deguvchilarni ham uchratib qolasiz. Ularga qisqa javobimiz shu: bilimdonlikka, o'ylab fikrlashga, donolikka intilmagan, shu sifatlardan uzoq bo'lgan mutaxassisni to'laqonli mutaxassis, deyish mumkinmi? Iqtisodchi olim umumiqtisodiy qonunlarni yaxshi bilsagina xususiy iqtisodiy qonunlarni shunga muvofiq aniq ifodalay oladi. Agar iqtisodchi rahbar respublika iqtisodiyotining ko'lamiyu miqyosini tasavvur eta olsagina o'z xo'jaligining istiqboli rejalarini ham tugal belgilashga erishadi. Bunda, albatta, unga falsafaning umumiylik va alohidalik kategoriyalari dialektikasini bilish qo'l keladi. Mabodo u dialektikaning sabab va oqibat kategoriyalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, inqiroz davrida boshqa rahbarlarga nisbatan tadbirkorlik bilan ish ko'rishi, korxonasi sinishining oldini olishi mumkin.

Ayrim mutaxassislar falsafadan qabul qilinadigan nomzodlik imtihonlarini noto'g'ri deb hisoblamogdalar. Bu o'rinda qaysi falsafa nazarda tutilayotganligini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri, abstrakt — aksiomatikadan iborat bo'lgan dogmatik markscha-lenincha filosofiyadan sinov topshirish haqiqatan ham maqsadga muvofiq emas. Lekin filosofiya faqat dogmaga aylantirilgan markscha-lenincha filosofiyadan iborat emasku? Mening nazarimda dialektik bilish nazariyasi, mushohada falsafasi, uning tamoyiliyu uslubi, qonun va kategoriyalari barcha fanlar uchun hech qachon o'zining metodologik qimmatini yo'qotmaydi.

Shu jihatdan olganda, dialektik uslub ilmiy dunyoqarashning shakllanishida muhim vosita rolini o'ynamog'i, barcha ijtimoiy gumanitar va aniq fanlarimizning ustivor uslubi bo'lib qolmog'i kerak. Chunki uning yordamidagina kishilar amaliy va ilmiy faoliyatlariga oid masalalarga, insoniyat taqdiri va istiqboli muammolarini oqilona bilishi, hal qilishi mumkin.

Talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda, shuningdek ular ongida iqtisodiy tafakkurni qaror toptirish muhim ahamiyatga ega.

Xususiy mulk, tadbirkorlik rivojlanmoqda, tijorat banklari, birjalar, savdo uylari, mayda, qo'shma, aksionerlik korxonalar tashkil etilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, jumhuriyatimizda iqtisodiy uyg'onish jarayoni kechmoqda. Ushbu jarayon bilimlarsiz amalga oshmaydi. Bilasiz, bozor iqtisodi biz uchun yangilik. U qator chalkashliklarni keltirib chiqaryapti. Bu borada biz "chalasavod"miz. Shuning uchun eng avvalo zudlik bilan bozor iqtisodiga oid bilimlarni ommalashtirish darkor. Ayniqsa bu iqtisodiy oliy bilimgozlar talabalar uchun havodek zarur. Bizning oliygohimiz, masalaga xuddi shu nuqtai nazardan yondoshib, buning uchun xorij tajribalaridan foydalanishga va ular bilan hamkorlik qilishga kirishdi. Amerikaning mashhur korporatsiyalaridan biri "Junior achivmint" bilan hamkorligimiz esa yuqoridagi muammolarni echish imkonini beradi, deb o'ylaymiz. Bu korporatsiya o'zining etmish yildan ko'proq faoliyati davomida bozor iqtisodining dastlabki bilimlarini ommalashtirish tajribalarini to'plagan. Ular o'z bilimlarini jumhuriyatimizda ommalashtirishga rozi. Shuning uchun Toshkent Moliya oliy bilimgohi, O'zbekistonda yosh tadbirkorlarga ko'mak berish uyushmasi, "Ipak yo'li" banki ishtirokida "Junior achivmint" — O'zbekiston shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq talabalar jahon talablariga mos keladigan darajada iqtisodiy bilimlar, bozor iqtisodiyotining asoslari bilan tanishadilar. Bozor iqtisodiyoti muammolari echimini topish yo'llarini o'zlashtiradilar. "Amaliy iqtisod" dasturi asosida o'qish rejalarini o'rganadilar. Xullas, bu jarayonlar yoshlarimizga tadbirkorlik malakalarini singdirib, ularni bozor iqtisodiyotining nozik tomonlari bilan oshno etadi. Tinglovchilarimiz o'qish davomida tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi tushunchalarni bilib oladilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning tutgan o'rni, talab va taklif, ularning muvozanati, narxni tashkil etish usullari, omadli bizneschi bo'lish sirlari va uning moliyaviy jarayonlari, marketing ishi, raqobat usullari va shakllari, soliq to'lash, kredit olish va hokazolardan iboratdir. Umuman mana shu o'qish jarayonida yoshlarimizga topqirlik, ziyraklik, zukkolik, aql bilan ish yuritishning nozik tomonlariga katta e'tibor berish uqtiriladi.

Prezidentimiz aytganlaridek, xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, ma'rifat tuyg'ulariga tayangan mafkuragina keng ma'nodagi istiqloq mafkurasi bo'la oladi. Bunday mafkura aholining barcha guruhlarini o'z-o'zini, milliy o'zligini, vatandoshlik tuyg'usini anglashga, mamlakat ichida va xalqaro miqyosda sodir bo'layotgan voqealarga sezgirlik bilan qarashga, qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan jamiyat va uning kelajagini ko'ra bilish, tushunish va baholay bilishga o'rgatadi.

Respublikamizda milliy istiqloq qadriyatlarini, O'zbekiston vatanparvarligining ustivorligini bilishni qaror toptiradi.

Istiqloq mafkurasi ob'ektiv va sub'ektiv faktlarning o'zaro mosligini qat'iy hisobga olgan holda dunyoqarashni shakllantiradi, idealni bugungi imkoniyatlar darajasida ko'rsatib va izohlab, aholining etilib turgan muammolarini hal etishga da'vat etadi. Aholida bozor munosabatlaridan

kelib chiqadigan va unga mos keladigan yangi ijtimoiy-psixologiyani qaror toptiradi. Har bir kishini milliy va umuminsoniy qadriyatlar zaminida o'zligini anglashga o'rgatib, barkamol inson qilib tarbiyalaydi.

Rivojlanish va taraqqiyot mafkurasi qonuniy demokratik davlatchilikka asoslangan jamiyatni qurishga xalaqit beradigan har qanday iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy to'siqlarga qarshi kurash olib bormog'i lozim. Kurashning xarakteri, vositalari albatta ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi va davr, sharoit xarakteridan kelib chiqmog'i kerak. Albatta, bu kurash adolatga asoslangan qonun va qonunchilik kuchiga tayangan kurash bo'lishi kerak. Bunda hamma qonun oldida teng javobgar ekanligi katta rol o'ynaydi.

Yangi O'zbekistonning siyosiy me'mori, hurmatli yurtboshimiz aytganlaridek, endi qaddimizni ko'tarmog'imiz kerak. Bizning erimiz, el-yurtimiz endi erkin nafas olayapti. Lekin shuni unutmaslik kerakki, istiqlolimiz osonlikcha qo'lga kiritilgani yo'q. Bu haqda istiqlolimizning ikki yilini bayram qilish arafasida yana bir marta jiddiy o'ylamog'imiz, uni mustahkamlashning yangi-yangi vositalarini yaratish bobida katta-katta ishlarni amalga oshirishimiz zarur. Bunga hamma — Prezident ham, ziyoli ham, ishchi ham, o'quvchi ham birdek masuldir.

Mustaqillik bizlarga shunday erkinliklar berdiki, natijada o'z ona tuprog'imiz, tariximiz, dinimiz, mafkuramizga o'zimiz ega bo'ldik. Bu shubhasiz har bir vatandoshimiz qalbida iftixor his-tuyg'ularini uyg'otadi. Bu tuyg'ular bizni mustaqillikni mustahkamlashga davat etadi. Shu yo'lda qanchalik fidokorlik ko'rsatsak, mustaqilligimizning kelajagi shuncha nurafshon bo'ladi.